

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

«Servis va turizm» fakulteti

«Xalqaro turizm va turizm servisi» kafedrası

«Himoyaga tavsiya etildi»
“Xalqaro turizm va turizm
servisi” kafedrası mudiri v.b.,
i.f.n. R.S.Amriddinova

Bayonnoma № ____ 2014 y. ____ iyun

**« Turizm va mehmonxona xo`jaligi servisi »
*ta’lim yo`nalishi***

**TMS-310 guruh talabasi Usmonov Firdavs Sharabovichning
O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda etnografiya, urf-
odatlar va an’analarining tutgan o‘rni mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**

Ilmiy rahbar: assistent Daminov M.I.

SAMARQAND – 2014

MUNDARIJA

	Kirish.....	3
I-BOB.	O‘zbekistonda milliy urf – odat va an‘analarning turizm	
	tutgan o‘rni, turlari va geografiyasi.....	5
1.1.	Xalqimizning milliy urf – odat va an‘analarning tavsifi va tasnifi	5
1.2.	Xalqimizning, milliy an‘analari va urf-odatlarining turlari.....	10
1.3.	Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi.....	24
II-BOB.	O‘zbekistonda urf–odatlar va an‘analardan turizm	
	foydalanishning ijtimoiy iqtisodiy ahamiyati.....	31
2.1.	Mamlakatimizda xalqaro turizmni rivojlantirishda urf – odatlar va an‘analarning o‘rni	31
2.2.	Milliy urf–odatlar, an‘analar va hunarmandchilik turizmini rivojlantirishning ijtimoiy iqtisodiy ahamiyati.....	34
2.3.	Turizm	
	da turistlarning hayot faolyati havfsizligini ta‘minlash chora-tadbirlari.....	37
III- BOB.	O‘zbekistonda milliy urf – odat va an‘analar turizmini	
	rivojlantirish yo‘llari.....	48
3.1.	O‘zbek etnik madaniyati: o‘ziga xos ko‘rinishlari va belgilari.....	48
3.2.	Milliy urf–odatlar, an‘analar turizmini rivojlantirishda turistik marshrut ishlab chiqishda xizmatlar ko‘rsatish talabi.....	54
3.3.	O‘zbekistonda milliy urf–odatlar, an‘analar turizmini rivojlantirishning dasturini ishlab chiqish.....	57
	Xulosa.....	60
	Tavsiyalar.....	61
	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.....	62

Kirish

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi O'zbekiston juda katta turistik salohiyatlarga ega. Mamlakatimiz nafaqat Markaziy Osiyoda, balki, butun jahonda ham xalqaro turizmning markazlari bo'lib qolishligining juda katta imkoniyatlari bor.

Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan Vatanimiz qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga, boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega.

Shu tufayli «Turizm va sayohat Jahon Kengashining ko'rsatgichi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi 2013 yilda turizm sohasida eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakatlar qatoriga qo'shildi¹.

Bugungi kunda turizm sohasi mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etishini va u XXI asr jahon xo'jaligining ustuvor tarmoqlaridan biri ekanligini alohida ta'kidlash lozim bo'ladi.

Hozirgi zamonda o'zbek xalqining urf-odatlarini asrlar bo'yi o'zbek millatining tashkil topishida ishtirok etgan barcha qabilalar va elatlarning madaniy malakalari va an'alarining uyg'unlashuvdagi murakkab jarayonlar oqibatida tarkib topgan. Ular o'ta o'ziga xos, yorqin va turli-tuman bo'lib, urug'chilik patriarxal munosabatlaridan kelib chiqadi. Urf-odatlarining ko'pchiligi oilaviy hayotga oid bo'lib, bolaning tug'ilishi va tarbiyasi (beshik to'yi, xatna qilish), nikoh (fotiha to'yi, to'y) bilan bog'liq bo'ladi. Ko'pincha ular islom urf-odatlarining sehrgarlik amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan undan ham qadimiyroq shakllarga uzviy kirib ketishini namoyon etadi. Xalqaro turistlarni mamlakatga jalb qiladi, balki uni jahonga tanitishga ham yordam beradi. Aynan mana shu sabablar bitiruv malakaviy ishning dolzarbligini belgilaydi.

¹ VI- Toshkent Xalqaro Investitsion-Moliya Forumi doirasida o'tkazilgan Plenum majlisida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot ishlari vaziri G.Saidova nutqida. 2013y.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganish obekti- o'zbek xalqining urf-odatlarini turistik resurslarni va rivojlantirish imkoniyatlarini, bolalar tarbiyasi (beshik to'yi, xatna qilish), nikoh (fotiha to'yi, to'y) bilan bog'liq bo'ladi, an'analarning uyg'unlashuvini yaratish imkoniyatlarini o'rganish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi- mamlakatimiz turizm bozorini rivojlantirishda o'zbek xalqining urf-odatlarini, an'analarning ahamiyatini o'rganishdir.

Bitiruv malakaviy ishning vazifasi- o'zbek xalqining urf-odatlarini, an'analarni turizmga qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar va yo'l-yo'riqlar, tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Ishning shakllanishi natijasida urf-odatlarini, an'analarni turizmini rivojlantirishning yo'llari va ishlab chiqilgan dasturlari, usullari bo'yicha tayyorlangan tavsiyalar turistik firmalar, turistik tashkilotlar, mehmonxonalar va turizm boshqaruvlariga beriladi. Bu tavsiyalardan tadbirkorlar ham to'liq foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi: kirish, 3 ta bob, shuningdek, har bir bobda 3tadan paragraf savollari, xulosalar, tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishida 2 jadval, 10 rasm va 12 ta foydalanilgan adabiyotlar ruyxati keltirilgan.

Ishning hajmi 62 betdan iborat bo'lib kompyuterda terildi va sahifalandi.

I-BOB. O‘zbekistonda milliy urf – odat va an‘analarning turizmga tutgan o‘rni, turlari va geografiyasi.

1.1. Xalqimizning milliy urf – odat va an‘analarning tavsifi va tasnifi

Milliy urf – odat va an‘analarning turlarini ro‘yxatini tuzishda ba‘zi bir turlar ma‘lumotlarning yo‘qligi tufayli qolib ketishi mumkin. Bunday turlar aniqlanib, to‘liq tavsifi, ta‘rifi berilganidan keyin turizmdagi o‘rni, talabga javob berilishi belgilanganidan keyin tasnifga qo‘shimcha qilib kiritiladi.

Tasniflash har qanday sohaga muhim, to‘liq ma‘lumotlar beruvchi, soha rivojini rejalashtirishda asosiy manba bo‘luvchi, jadvalli muhim ma‘lumotnomadir. Tasniflashda o‘rganilayotgan sohaning barcha jihatlari, xilma-xilliklari, ma‘lumotlari bo‘lishi lozim.

Turizmdagi maxsus turlar hozircha turizm turlari emas. Bu haqda birinchi bobda to‘liq aytiladi. Biz turizmga maxsus turlar bo‘lishi mumkinligin hisobga olib, madaniyat sohalari, hunarmandchilik, milliy o‘yinlar va ishlab chiqarish sohalari nomlanishiga turizm so‘zini qo‘shib turizmdagi maxsus turlar ro‘yxatini – tasnifini R.Hayitboyev va R.Amriddinova ishlab chiqgan².

1. Milliy madaniyatga qiziqish turizmi.

Xalqimizning urf-odatlari, tildagi shevalar, oila hayoti, kattalar va yoshlar munosabatlari, salomlashish, mehmon kutish va mehmondorchilik, to‘y va diniy marosimlar, oila bayramlari, oiladagi huquqlar, kelin va sunnat to‘ylari, uy tutish va hokazolarga qiziqish.

2. Agroturizm

Qishloqlarning turli- tumanligi va tabiiy –tarixiy davrda yuzaga kelishi, qishloq aholisi hayoti, fermerlar hayoti va faoliyatiga qiziqish.

3. Etnik va sog‘inish turizmi

Xalqlar, ellar, urug‘lar, ularning yashash tarzi, millatlarning urf-odatlari, kelib chiqishi tarixi, joylashishi, o‘zaro aloqalari. Xalqlarning, millatlarning har xil sabablar bilan dunyo bo‘ylab tarqalib ketishi, ularning bir-birlariga intilishi, sog‘inishi, qo‘msashidagi ichki va xalqaro turizm.

² R.Hayitboyev. R.Amriddinova - «Turizmning maxsus turlari». Uslubiy qo‘llanma.Samarqand 2008

4. Milliy sanat turizmi

Milliy sanat, milliy folklor, qo‘shiqchilik, milliy raqslar, askiyalar, laparlar, aytishuvlar, rassomchilik va haykaltaroshlik, baxshilar, o‘lan aytish qo‘shiqchiliklari kabi sanat turlariga qiziqish. Bu tur quyidagi yo‘nalishlarga bo‘linadi:

- 4.1. Qo‘shiqchilik va raqs sanati yo‘nalishlari.
- 4.2. Baxshilar qo‘shiqchiligi maktablari.
- 4.3. Askiyalar, laparlar, aytishuvlarga qiziqish.
- 4.4. Milliy rassomchilik va haykaltaroshlik.
- 4.5. Milliy folklor turlari.

5. Tabiiy – tarixiy tasvirlar turizmi

Tabiat muzeylari va tabiat haykallari, tog‘ qoyatoshlaridagi qadimiy rasmlar, o‘lkashunoslik va milliy xalq hayoti tarixiy muzeylariga qiziqish. Bu tur ham quyidagi yo‘nalishlarni o‘z tarkibiga oladi:

- 5.1. Tabiat muzeylari va tabiat haykallari
- 5.2. O‘lkashunoslik muzeylari
- 5.3. Milliy xalq hayoti tarixi muzeylari
- 5.4. Qoyatoshlaridagi qadimiy rasmlar
- 5.5. Hayvonot bog‘lari.

6. Milliy hunarmandchilik turizmi

Milliy hunarmandchilikning turlari, milliy hunarmandchilikdagi yo‘nalishlar, xalq – memor, xalq- usta shiori va reklamasi, milliy hunarmandchilik buyumlarining mukammal va mo‘jizakorligiga qiziqish. Bu turizm turi quyidagi tarmoqlarga bo‘linib ketadi:

- 6.1. Duradgorlik va uning maktablari.
- 6.2. Kulolchilik va uning maktablari.
- 6.3. Kashtachilik, zardo‘zlik, milliy liboslar(do‘ppi, to‘n, belbog‘lar) tikishdagi yo‘nalishlar.
- 6.4. Milliy ustachilik
 - 6.4.1 Temirchilik

- 6.4.2 Misgarlik
- 6.4.3 Musiqasozlik
- 6.4.4 Beshiksozlik
- 6.4.5 Aravasozi
- 6.4.6 Sandiqsozlik
- 6.4.7 Egarsozlik
- 6.4.8 Mahsido'zlik
- 6.4.9 Gilamchilik va palos to'qish.

7. Milliy o'yinlar turizmi.

Markaziy Osiyo xalqlarida milliy o'yinlar nomini olgan o'ziga xos musobaqalari, mardlik, jasurlikni namoyish qiluvchi bellashuvlar va Dune xalqlarida ko'plab uchraydigan hayvonlar va parrandalarni urishtirishga qiziqish. Bu tur quyidagi yo'nalishlardan iborat:

- 7.1. Ko'pkari-uloq.
- 7.2. Milliy kurash.
- 7.3. Qo'chqor urishtirish.
- 7.4. Xo'roz urishtirish.
- 7.5. Bedana urishtirish.
- 7.6. Dorbozlik

8. G'orshunoslik turizmi

O'lkamizdagi tarixiy g'orlar, g'orlar haqidagi malumotlar, tarixiy shaxslar hayoti bilan bog'liq g'orlar, paleontologik g'orlar, g'orlardan o'tmishda va hozirda foydalanish, yer osti qasrlariga sayohatga qiziqish.

9. Sirk turizmi

Sirkdagi mashhur kishilar - sanatkorlar, sehrgarlar, gipnozchilar va hayvonot turlari ishtirokidagi o'yin dasturlariga qiziqish.

10. Agroturizm

Mamlakatimizdagi asosiy ekinlar, milliy gulchilik, introduksiya, o'simliklar seleksiyasiga, qishloqdagi dehqonchilik, polizchilik, meva-sabzavotchilik, bahorikor va sug'orma dehqonchilikga qiziqish.

11. Xalqaro polvonlar bellashuvi turizmi

Vatanimizda xalq polvonlari o'yinlari va xalqaro polvonlarning bellashuviga qiziqish.

12. Hayot uchun xavfli sport o'yinlari turizmi

Bu turlar asosan xorij mamlakatlarida rivojlanib bormoqda. Hayot uchun xavfli sport o'yinlari turizmdagi bazi bir turlar faqat jahonda faqat bitta davlatda rivojlangan (masalan, korrido Portugaliyada, asov otni jilovlash Ispaniyada) bo'lib turizm mavsumida bu hayot uchun xavfli o'yinlarni millionlab turistlar hayajon, qo'rquv va qiziqish bilan tomosha qiladilar. Bu turlarni ba'zida ekstremal turizm turlari deb ham atashadi.

12.1. *Beys jumping* - baland qoya va binolardan parashyutda sakrash.

12.2. *Xelisking* - chang'ida vertolyotdan qorli tik qoyaga sakrash.

12.3. *Dayving* – suv ostiga sho'ng'ish.

12.4. *Keyv-dayving* - suv osti g'orlariga sayohat.

12.5. *Bull – rayding* – asov ho'kizni (buqani) jilovlash.

12.6. *Korrido* – asov otni jilovlash.

12.7. *Syorfing* – okean, dengizning shiddatli, baland to'lqinlaridan taxta chang'ida suzib o'tish.

12.8. *Stritlaging* – avtomobillar serqatnov tik tog' yo'lidan pastga qarab rolikli taxtaga yotib harakatlanish.

12.9. *Skalalazing* – tik qoyalarga, baland binolarga himoyasiz, arqonsiz va asboblarsiz chiqish.

12.10. *Vellokross* - velosipedda havoda mashqlar bajarish, noqulay joylarga chiqish va tushish.

12.11. *Motokross* – mototsiklda yonayotgan obektlardan sakrab o'tish.

12.12. *Rafting* - o'ta tez oqadigan, havfli shovvalar, kamarlar bor daryo oqimi bo'ylab maxsus qayiqlarda suzish.

12.13. *Dorbozlik* - himoyasiz va shartli himoyada baland bino, baland qoya va keng suv havzalariga tortilgan arqondan yurib o'tish.

12.14. Niagara - baland, sersuv sharsharalardan (bochka ichida, maxsus kiyimda va hak.) balanddan suv, bilan pastga tushish.

12.15. Koinot - kosmik kemada kosmonavtlar bilan fazoga borib kelish.

12.16. Ralli- Parij shahridan Afrika sahrolari orqali avtomobillarda, mototsikllarda Dakar shahrigacha bo'lgan sport birinchiligi.

12.17. Zaharli ilonlar, chayonlar orasida o'tirish, ilon o'ynatish.

Keltirilgan maxsus turlarning tasnifidan malum bo'ldiki O'zbekistonda turizmning maxsus - «kichik ko'lamli, noananaviy» turlarining «katta ko'lamli, ananaviy» turlarga aylantirishda juda katta turistik salohiyati bor ekan. Keltirilgan 12 ta maxsus turlardan 11 turini turizmga shakllantirish mumkin. Bu turlar ham ko'pqirraliligi va ko'pvariantliligi jihatidan o'ziga xos, betakror ijodiy yaratuvchanlik yo'nalishlariga, tarmoqlariga bo'linib ketadi.

Mazkur turlarga ichki va ayniqsa xalqaro turistlarni jalb qilish, taklif qilishdagi tashkiliy tadbirlar ishlab chiqilsa, maxsus turlardan turizmga foydalanishning dastlabki rejalari amalga oshirilgan bo'ladi. Ichki turizmga maxsus turlarning ommaviy rivojlanmayotganligining bosh sababi maxsus turlar manzillariga marshrutlarning yo'qligi, bu turlar manzillarini hatto ekskursiyaga chiquvchilar ham, shuningdek shaharlarda yashayotgan aholining ham ko'pchiligi bilmasligidir.

Bu holatning yana bir sababi, qadimiy xalq hunarmandchiligi maskanlari, xalq ustalari haqida kam yozilishi, radio, ommaviy axborotlar va televideniya malumotlar, reklamalarning juda siyrak holatda berilayotganidir. Aks holda Samarkand shaxriga boshqa viloyat va shaharlardan kelgan mehmonlar albatta xalq ustalari, hunarmandlari ishlarini tomosha qilishga qiziqish tufayli bunday joylarga ekskursiyalar, tashriflar qilishi mumkin edi.

Doimo yodda saqlashimiz lozimki, O'zbekiston azaldan xalq hunarmandchiligi bilan mashhur bo'lib kelgan. Hozirgi vaqtda respublikada xalq hunarmandchiligi asosida esdalik buyumlar ishlab chiqaruvchi 500 ga yaqin korxona mavjud. Ular chinni va sopol buyumlar, pichoqlar, sopol o'yinchoqlar,

zardo‘zi mahsulotlar, gilam, poloslar va milliy kiyimlar va boshqa buyumlar ishlab chiqarmoqda.

Turizmdagi maxsus turlarning tavsifi bo‘yicha hozircha hayot uchun xavfli sport turlari turizmlarini rivojlantirib bo‘lmaydi. Chunki bu turlarni tashkil qilish hozircha boshlanmagan.

Hayotga xavf soluvchi sport o‘yinlari turizmining ayrim turlarini tadbirkorlar keyinroq tashkil qilishi mumkin. Sarguzasht va hayotga xavf soluvchi sport o‘yinlari turizmining huquqiy- qonuniy meyorlari bizda ham ishlab chiqilmagan.

Maxsus turlarning ayrim turlarini hozirdanoq ommaviylashtirishning katta imkoniyatlari bor. Masalan, tobora unutilib borayotgan dorbozlik o‘yinlarini qaytadan tiklash, doimiy dorbozlik maskanlarini belgilash lozim. Bunday holatda turistlarni bu o‘yinlarga taklif qilish vaqtlari aniq bo‘ladi. Xuddi shuningdek, ko‘pkari-uloq 2-3 oy davom etadigan, turistlarning katta oqimlarini o‘ziga jalb qiladigan g‘oyat qiziqarli turistik obekt. Bu turni ommaviylashtirish uchun eng muhim muammo turistlarni kutib olish, xizmatlarni tashkil qilish, joylashtirish, dam olish, ovqatlantirish va tunashi sharoitlarini tashkil qilish ishlarining haligacha boshlanmaganligidir.

Maxsus turlarning tavsifi va tasnifini tayyorlashdagi ma’lumotlarning tahlili natijasida shunday asosiy xulosaga kelish mumkinki, bu turlardan turizmda foydalanish istiqbollari juda katta va murakkab muammolarni yechishni talab qilmaydi. Dastlab tashkiliy jarayonlar va bu turlarning reklamasini turizm bozoriga chiqarish talab qilinadi.

1.2. Xalqimizning, milliy an’analar va urf-odatlarining turlari.

O‘zbek oilasining asosiy o‘ziga xos xususiyatlari mehmondo‘stlik va yoshi kattalarga an’anaviy hurmat-yehtiromli muomala qilishdir. O‘zbeklar odatda bir nechta avlodlardan iborat bo‘lgan katta oilalar tarkibida yashaydi, shuning uchun ular ko‘proq hovlisi bo‘lgan katta uylarni yoqtirishadi. Maishiy hayotida mehmondo‘stlikning bir qismi bo‘lgan choyxo‘rlik marosimi katta ahamiyatga ega

bo‘ladi. Bunda choy damlash va uni mehmonlarga quyib berish faqat mezbonning mutlaq huquqi bo‘ladi. Tushlik yoki kechki ovqatga takliflarni doimo qabul qilish va o‘z vaqtida kelish qabul qilingan. Mehmonga kelayotganda o‘zi bilan birga mezbonning bolalari uchun suvenirlar yoki shirinliklarni olgan yaxshi. Odatda faqat erkaklar bilan qo‘l berib so‘rashishadi. Ayollar hamda uzoqroq o‘tirgan kishilar bilan o‘ng qo‘lini yuragiga qo‘yib, boshini ohista egib salomlashish lozim. Qo‘l berib so‘rashish paytida an’anaga ko‘ra kishining salomatligi, ishda va uydagi ishlari ahvoli to‘g‘risida so‘raydilar. Qishloq joylarda mehmon kelgan paytda ayollar odatda erkaklarning suhbatiga xalal bermaslik uchun ular bilan bir dasturxonga o‘tirmaydilar. Ayollarning go‘zalligiga qoyil qolish va ularga jiddiy e‘tibor berish qabul qilinmagan. Turar joy xonasiga kirishda poyafzal yechiladi. Mezbon ko‘rsatadigan o‘ringa o‘tirish kerak. Bunda ushbu joy kirishdan qanchalik uzoqda bo‘lsa, shunchalik hurmatli bo‘ladi.

Urf-odatlar

O‘zbek xalqining urf-odatlari asrlar bo‘yi o‘zbeklar millatining tashkil topishida ishtirok etgan barcha qabilalar va elatlarning madaniy malakalari va an‘analarining uyg‘unlashuvidagi murakkab jarayonlar oqibatida tarkib topgan. Ular o‘ta o‘ziga xos, yorqin va turli-tuman bo‘lib, urug‘chilik patriarxal munosabatlaridan kelib chiqadi. Urf-odatlarning ko‘pchiligi oilaviy hayotga oid bo‘lib, bolaning tug‘ilishi va tarbiyasi (beshik to‘yi, xatna qilish), nikoh (fotiha to‘yi, to‘y) bilan bog‘liq bo‘ladi. Ko‘pincha ular islom urf-odatlarning sehrgarlik amaliyoti bilan bog‘liq bo‘lgan undan ham qadimiyroq shakllarga uzviy kirib ketishini namoyon etadi. Islom qabul qilinganidan beri ko‘pgina oilaviy-maishiy urf-odatlar uning ta’sirida o‘zgargan, o‘zbeklarning hayotiga musulmon diiy marosimlari kirib kelgan. Juma kuni bayram kuni hisoblanadi va shu kuni barcha yig‘iladigan masjidda umumiy namoz (duo) o‘qiladi. Patriarxal urf-odatlar masjid, choyxonalar, bozorda o‘tadigan hamda faqat erkaklar ishtirok etadigan ijtimoiy hayotda hozirgacha ham yashamoqda.

(1-rasm) Beshik to‘yi



Beshik to‘yi – chaqaloqni birinchi marta beshikka solish bilan bog‘liq bo‘lib, nishonlanadigan marosimli bayramdir. Bu eng qadimgi va O‘zbekistonda eng keng tarqalgan marosimlardan biri. Odatda bu to‘y chaqaloq tug‘ilishining 7-, 9-, 11- kuni o‘tkaziladi. Turli viloyatlarda marosim o‘zicha xususiyatlarga ega bo‘ladi va oilaning boyligi darajasiga bog‘liq bo‘ladi: o‘ziga to‘q oilalar odatda bu to‘yni katta ko‘lamda o‘tkazadi, kambag‘al oilalar esa uni kamtarona nishonlaydilar. Beshik va chaqaloq uchun barcha zarur andomlar chaqaloq onasining qarindoshlari tomonidan beriladi. Dasturxonga non, shirinliklar va o‘yinchoqlar o‘rab beriladi. Chaqaloqning ota-onasiga, uning bobo-buvilariga sovg‘alar tayyorlanadi. Boy bezatilgan beshik, dasturxonlar va sovg‘alar transport vositasiga qo‘yilib, mehmonlar bilan birgalikda, karnay-surnay va nog‘ora sadolari ostida chaqaloqning ota-onasi uyiga jo‘natiladi. An‘anaga ko‘ra olib kelingan beshikni avval chaqaloqning bobosi o‘ng yelkasiga qo‘yadi, keyin o‘g‘lining o‘g‘ yelkasiga uzatadi, u esa beshikni chaqaloqning onasiga beradi. O‘tmishda mehmonlarning barcha niyatlari toza va yaxshi bo‘lishi uchun ular yuziga oq un surar edilar. Mehmonlar mehmonxonaga yasatilgan dasturxonga taklif etiladi va mehmonlar ovqatlanib, sozandalarni tinglab, bazm qilib o‘tirgan paytda qo‘shni xonada kampirlarning ishtirokida bolani yo‘rgaklash va beshikka solish marosimi o‘tkaziladi. Marosim oxirida mehmonlar bolani ko‘rish uchun oldiga kiradilar, unga sovg‘alarni beradi va beshikning ustiga parvarda yoki qand sepadilar. Shu bilan marosim tugab, mehmonlar uy-uylariga qaytadilar.

(2-rasm) Xatna qilish



Xatna qilish to‘yi – islom tomonidan muqaddas deb e‘zozlangan yana bir qadimiy o‘zbek odatidir (sunnat to‘yi). Bu marosim o‘g‘il bolalar uchun 3, 5, 7, 9 yoshga kirganda, kamdan-kam hollarda 11-12 yoshda o‘tkaziladi. Sunnat to‘yining o‘tkazilishi jamoatchilik tomonidan nazorat qilinadi. O‘g‘il bolaning tug‘ilgan paytidan boshlab uning ota-onasi asta-sekinlik bilan kerakli narsalarning hammasini sotib olib, sunnat to‘yiga tayyorgarlikni boshlaydilar. Ko‘pincha oddiygina «to‘y» ham ataladigan marosimning o‘tkazilishidan bir necha oy avval unga bevosita tayyorgarlik boshlanadi. Qarindoshlar va qo‘shnilar ko‘rpalarni tikishda, to‘y sovg‘alarini tayyorlashda yordam beradilar. Bularning hammasi ko‘p bolali onalarga topshiriladi. To‘ydan avval mahallada yashovchi oqsoqollar, masjidning imomi va qarindoshlarning huzurida Qur‘on o‘qiladi. Dasturxon yoziladi. Shundan keyin Qur‘ondan suralar o‘qiladi va oqsoqollar o‘g‘il bolaga duo o‘qiydilar. Shundan so‘ng katta «to‘y» boshlanadi. «To‘y» dan avval bolaga qo‘shnilar, oqsoqollar, qarindoshlarning oldida sovg‘alarni, zar tikilgan kiyimlarni kiydirishadi. O‘tmishda toychoqni sovg‘a qilish rasm bo‘lgan edi, bolani endilikda u jangchi bo‘lganligini bildirib, unga bolani o‘tqazar edilar. Shamma o‘g‘il bolani tabriklab, unga pul va shirinliklar sepadi, keyin bularning hammasi ichkarida, ayollarning xonalarida davom etadi. Shu kunning o‘zida ayollarning davrasida «taxurar» - ko‘rpalar, yostiqlarni supaga taxlash marosimi o‘tkaziladi, buni odatda ko‘p bolali ona bajaradi. Marosimni mo‘l-ko‘l dasturxon, jumladan bayram oshi tamomlaydi. An‘anaga ko‘ra oshdan keyin kechqurun hovlida katta gulxan yoqiladi va odamlar gulxan atrofida o‘ynaydilar, turli o‘yinlarni uyushtiradilar. Ertasiga bayram davom etadi.



(3-rasm) Fotiha to‘yi

Nikoh ota-onalarning ruxsati va duosi bilan, bir necha bosqich qilib o‘tkaziladi. O‘g‘il voyaga yetganda ota-onasi unga mos keladigan qizni izlay boshlaydilar. Bu jarayonga yaqin qarindoshlari, qo‘shnilari, oshnalari ham kirishadi. Qizni topgandan keyin yigitning xolalari yoki ammalari qizning uyiga uni ko‘rish, ota-onalari bilan va ehtimoliy kelinning uydagi ahvoli bilan tanishish uchun biror bahona bilan kiradilar. Shundan so‘ng qo‘shnilari va tanishlari tanlangan qizning oilasi haqida surishtiradi. Ijobiy javob olingan holda uyga sovchilar yuboriladi. Sovchilikning asosiy marosimlaridan biri fotiha to‘yidir. Sovchilar fotiha qilinadigan kunni belgilaydilar. Shu kuni qizning uyida atrofdagi taniqli oqsoqolar, mahalla oqsoqoli, qizlar yig‘iladi. Sovchilar o‘zining kelish maqsadini bayon etganlaridan keyin «non sindirish» marosimi boshlanadi. Shu paytdan boshlab yoshlar bir-biri bilan bog‘langan, fotiha qilingan deb hisoblanadi. Fotiha to‘yi nikoh tuziladigan va to‘y o‘tkaziladigan kunni tayinlash bilan tugaydi. Sovchilardan har biriga ichita ikkita non, shirinliklar bo‘lgan dasturxon beriladi, shuningdek qiz tomonidan yigitga va unning ota-onalariga sovg‘alar berib yuboriladi. Sovchilar kuyovning uyiga qaytganidan keyin ularning qo‘lidan sovg‘alar qo‘yilgan patnislarni olib, «sarp ko‘rar» marosimini boshlaydilar. Dasturxon odatda ko‘p bolali ona tomonidan ochiladi. Barcha yig‘ilganlar kelinining uyidan keltirilgan pishiriqlar, shirinliklardan bahramand bo‘ladilar. Fotiha to‘yidan boshlab va to‘yning o‘zigacha yoshlarning ota-onalari qalin, sep masalalarini va to‘y tantanasi bilan bog‘liq tashkiliy masalalarni hal etadilar. To‘ydan bir necha kun avval qiznikida «qiz oshi» marosimi o‘tkaziladi, unga qiz o‘zining yaqinlari va o‘rtoqlarini taklif etadi.



(4-rasm) Nikoh to‘yi

Nikoh marosimi an‘anaviy tarzda o‘zbeklarning hayotida nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi va

ayniqsa tantanali nishonlanadi. Umumiy xususiyatlari bo'la turib, u turli viloyatlarda o'zgacha tusda bayram qilinadi. Nikoh marosimining asosiy payti kelinning ota-onasining uyidan kuyovning uyiga o'tishi paytidir. To'y kuni kuyovnikida to'y oshi (palov) tayyorlanadi va kelinnikiga yuboriladi, u yerda u dasturxonga tortiladi. Xuddi shunday osh kuyovning uyida ham o'tkaziladi. To'y kuni masjidning imomi ikki yoshga «Xutbai nikoh» ni o'qiydi, shundan so'ng ular xudo oldida er-xotin deb e'lon qilinadi. Imom yoshlarga er va xotinning huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi. Odatda nikoh o'qilganidan so'ng yoshlar o'zining fuqarolik nikohini qayd etish uchun ZAGS ga boradi. To'y kuni kelinnikida kuyovga sarpo (to'yga sovg'a qilingan kiyimlar va poyafzal) kiydiriladi, shundan so'ng kuyov o'z oshnalari bilan kelinning ota-onasi huzuriga salom berish uchun boradi. Kuyovning oshnalari bilan qaytganidan so'ng kelin ham keladi. Kuyovning uyiga yuborishdan avval kelinnikida ota-ona bilan xayrlashish marosimi bo'lib o'tadi. Kelin bilan birga yaqin o'rtoqlari ham boradi. Ular qo'shiqlarni aytadilar («O'lan» va «Yor-yor» qo'shiqlari). Kelinni kuyovning uyida kutib olishdan haqiqiy to'y boshlanadi. To'y tugaganidan keyin kuyov kelinni ikki yosh uchun ajratilgan xonaning eshigigacha kuzatadi. Xonada kelinni «yanga» (odatda kelinga yaqin bo'lgan bir ayol) kutib oladi, kelin boshqa kiyim kiyadi va chimildiq (go'shanga) ortida turib, kuyovni kutib olishga tayyorlanadi. Bir qancha vaqtdan keyin kuyov oshnalari bilan birga xonaga yaqin keladi va yangia bilan birga uni kelin kutib turgan gushanga oldiga boradi. Kelinning oldiga kirish uchun u kelinni yangadan ramziy sotib olishi lozim, ular savdolashadi. Shundan keyin kuyov-kelin tuni bilan birga qoladilar. Ertalab azonda «Kelin salom» marosimi boshlanadi. Marosim boshlanishiga yaqin hovlida kuyovning ota-onasi, barcha yaqin qarindoshlari, kuyovningoshnalari va yaqin qo'shnilari yig'iladi. Ularning hammasi navabti bilan kelinning oldiga kelib, o'zining tilaklari, sovg'alari va duolarini baxshida etadi. Kelin har bir kishiga beligacha egilib salom berishi lozim. Shu tariqa bayram tugab, oilaviy hayot boshlanadi.



(5-rasm) Ertalabki osh

Yertalabki osh marosimi to'y (sunnat to'y yoki nikoh to'y) va aza ma'rakasida (o'limidan keyin 20 kun hamda bir yildan keyin) o'tkaziladi. To'yni o'tkazuvchilar ertalabki oshning kuni va vaqtini avvaldan mahalla yoki kvartal qo'mitasining jamoatchiligi bilan kelishgan holda belgilaydilar. Shu kunga qarindoshlar, qo'shnilar va tanishlariga taklifnomalar yuboriladi. Bir kun oldin kechqurun «sabzi to'g'rash» marosimi o'tkaziladi, unga odatda qo'shniar va yaqin qarindoshlar keladilar. Sabzi to'g'rab bo'linganidan keyin barcha ishtirokchilar dasturxonga taklif etiladi. Odatda sabzi to'g'rashga artistlar ham chaqiriladi. Ovqatlanish paytida oqsoqollar kelganlar o'rtasida ishlarni taqsimlaydilar. Ertalabki osh bomdod namozining tugashi paytigacha tayyor bo'lishi lozim, chunki namozdan chiqqan kishilar birinchi mehmonlar bo'ladi. Ertalabki namoz tugagan paytda karnay-surnay va nog'ora ovozlari ertalabki osh boshlanganidan xabardor etadi. Mehmonlar dasturxonga o'tirib, fotiha o'qiganlaridan keyin ularga non va choy tortiladi. Shundan keyingina laganlarda ikki kishiga birlagan hisobidan osh olib kelinadi. Ovqatdan keyin laganlar olib quyiladi, mehmonlar yana fotiha o'qib, mezbonga minnatdorchilik bildirib ketadilar. Ular ketganidan keyin dasturxon tezgina yangi mehmonlarning tashrifi uchun tuzatiladi. Ertalabki osh odatda ko'pi bilan bir yarim-ikki soat davom etadi. Shu vaqt mobaynida taklif etilgan artistlar qo'shiq aytadilar. Ertalabki osh tugaganidan keyin faxriy mehmonlarga sovg'alar – odatda choponlar (milliy erkak to'nlari) beriladi. Aza paytidagi ma'raka oshi shu bilan farq qiladiki, mehmonlar dasturxonga o'tirganlarida Qur'on suralarini o'qiydilar va o'lgan odamni xotirlaydilar. Ovqat tugaganda ham Kur'on suralari o'qiladi. Ma'raka oshida artistlar chaqirilmaydi, dasturxon bayram to'y oshiga qaraganda kamtarroq bezatiladi. Shuni aytib o'tish lozimki, bayram to'y oshi va ma'raka oshida faqat erkaklar xizmat qilib yuradi.



(6-rasm) Bayramlar

Eng muhim davlat bayrami – Mustaqillik kuni 1 sentyabrda tantanali nishonlanadi. Har yili 8 dekabr kuni 1992 yilda mustaqil O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi xotirasiga nishonlanadi. qo‘pgina boshqa davlatlardagidek, 9 mayda G‘alaba kuni – Xotira va qadrlash kuni nishonlanadi. Ro‘za tugashi bilan bog‘liq bo‘lgan bayram – ramazon hayit va qurbon hayit keng bayram qilinadi. Qurbon hayit eng ahamiyatli musulmon bayramlaridan biridir. Shu kuni belgilangan marosimlar va urf-odatlarini bajarganlaridan keyin musulmonlar mehmonlarga boradi yoki o‘zi mehmon kutadi, kasallar, yolg‘izlarga yordam beradi, yaqinlariga rahmdillik qiladi. «Ramazon hayit» - ma‘naviy va ruhiy poklanish bayrami nihoyatda go‘zaldir. U islom qonunlariga ko‘ra musulmon hijriy yilning 9-oyiga to‘g‘ri keladigan 30 kunlik ro‘za tugaganda boshlanadi. Bshu bayram kunlari o‘lganlarni xotirlash kasallar, qarilarni ziyorat qilish, xayriya va boshqa ezgu ishlarni qilish odat bo‘lgan.



(7-rasm) Navro‘z bayrami

Eng qadimiy xalq bayrami bo‘lgan Navro‘z («Navro‘z bayrami») 21 mart kuni, bahor kunu-tun tengligi paytida nishonlanadi. Bu tabiatning uyg‘onishi, ekin ishlarining boshlanishi bayrami bo‘lib, marosimlarida zardushtiylik alomatlari saqlanib qolgan. Qadimgi O‘zbekistonning ziroatchilik vohalarida har bahor faslida katta sayllar, bayramona bozorlar tashkil etilgan. An’anaga ko‘ra uylarda hozir ham «bo‘g‘irsoq» pishiriladi va marosim taomi – «sumalak» tayyorlanadi. Bayramdan keyin odatda daladagi ekin ishlari boshlangan, ularning paytida ham o‘tmishda turli urf-odatlar va marosimlar bajarilar edi: dalaga chiqishdan avval ho‘kizlarning shoxxlari va bo‘yinlariga moy surtiladi. Birinchi egatni mahallaning eng e‘tiborli va qari a‘zosi o‘tkazadi. Davlat mustaqilligi davri mobaynida Navro‘zni nishonlash yangicha

ko‘lam va teranlikka ega bo‘ldi. U do‘stlik, barcha xalqlarning birlashuvi, akakaligining umummilliy bayramiga aylandi. Yorqin rang-barang teatrlashtirilgan tomoshalarda Navro‘zning falsafiy-shoirona talqini, uning xalq tarixidagi o‘rni anglab ko‘rsatiladi.

(8-rasm) Kiyim



Mahalliy xalqlar kiyimlarining o‘ziga xosligi azaldan iqlimiy, maishiy sharoitlar va urug‘-qabila an‘analari bilan belgilanar edi. XIX asrdayoq kiyim (to‘nlar, ko‘ylaklar, yaktaklar) arxaik xususiyatlarga ega edi: keng, butunligicha bichilgan, uzun kiyim bo‘sh tushib turib, inson tanasining shakllarini yashirib turar edi. Kiyim bir tariqa tikilgan: erkaklar, ayollar, bolalarning kiyimlari, yozgi va qishki kiyimlar shakli va bichilishi, tikilishi o‘xshash bo‘lar edi. An‘anaviy milliy erkak kiyimi belbog‘ bilan bog‘langan, qavilgan issiq to‘n – chopon, do‘ppi nomli bosh kiyimi va nafis charmdan tikilgan etikdan iborat edi. Erkaklar to‘g‘ri bichilgan yaktaklar, ostki va ustki choponlarni kiyar edilar. Chopon yengil yoki issiq, paxta qo‘shib qavilgan bo‘lishi mumik edi. Chopon yonidan yurish va yerda o‘tishi oson bo‘lishi uchun kesiklar bor edi. Chopon odatda belbog‘ - qiyiqcha ro‘mollari bilan bog‘lanar edi. Bayramona milliy kiyim har kungidan foydalangan matolarning go‘zalligi va nafisligi, bezaklari va kashtalari kabilar bilan ajralib turar edi. Ayollarning milliy kiyimi chopon, to‘g‘ri bichilgan va xonatlasdan tikilgan qulay ko‘ylakdan, pasti torayib boradigan keng yupqa ishton – lozimdan iborat. Ayolning bosh kiyimi uchta asosiy qismidan tarkib topgan: qalpoqcha, ro‘mol va kallapo‘sh. bayramona ayol kiyimi tikilgan matolarining nafisligi va chiroyliligi bilan ajralib turadi. Bolalarning kiyimlari kattalar kiyimini takrorlab edi. Umumiy xususiyatlari bilan birga har bir tuman yoki qabiladagi kiyimlar ishlatiladigan

matosi, bichish shakli va usuli va shu kabilardan iborat bo'lgan farqli xususiyatlariga ega bo'lgan.




9-rasm) Boshkiyim (do'ppi)



O'zbekiston xalq amaliy san'atining eng ommaviy va hamma yerda tarqalgan turlaridan biri har doim do'ppi – adrasli qattiq yoki yumshoq qalpoqcha bo'lgan. Do'ppi o'zbek milliy kiyimining ajralmas qismi bo'lib, o'zbek xalqining hayoti va an'analariga chuqur kirib borgan. Do'ppi (turkcha tepa so'zidan) nafaqat o'zbeklar, balki boshqa Markaziy Osiyo xalqlarining ham milliy bosh kiyimidir. Do'ppilar turlariga qarab ajratilgan: erkaklar, ayollar, bolalar uchun, qarilar uchun turlari. Keksa ayollar bu bosh kiyimni kiymaydilar. Bolalarning do'ppilari (kulohcha, qalpoqcha, do'ppi, kallapo'sh) matolarining turli-tumanligi va rang-barangligi bilan, popuk va sharchalarining kattaligi, kashtalari, zarlari va tumorlarining ko'pligi bilan farqlanadi. O'zbek do'ppilarining eng ko'p tarqalgan shakllari ozgina konussimon kabi to'rt qirrali do'ppilardir. Do'ppilar bikki yoki undan ortiq mato qatlamlaridan tikilib, ipak yoki odiiy iplar bilan qavilib, mutahkamlanar edi. Tayyor do'ppi ustidan ipak, zar yoki kumush ip bilan kashta tikilar edi. Do'ppi tikish san'atini avvaldan ayollar o'rganar edi. Do'ppilardagi eng ko'p uchraydigan naqshlarga gul naqshlari, hayot va unumdorlik ramzi bo'lgan bodom naqshi kiradi. Do'ppilarning naqshida saqllovchi vosita deb hisoblangan ilon izi naqshi ham tez-tez tikilar edi. Geometrik shakllardagi naqshlar ham juda ommaviy edi. Turli tumanlarda yaratilgan do'ppilar o'zining shakli, naqshlari va tanlangan ranglari bilan farqlanadi. O'zbekistonning ko'pgina tumanlarida chust do'ppilari eng ko'p uchraydi. Chust do'ppilarining eng tarqalgan turi qora matodagi to'rt dona qalampir shaklidagi oq naqsh bilan tikilgan bo'lib, pasti qator joylashgan

gumbazchalar bilan o‘ralgan. Do‘ppining uchta turi mavjud – dumaloq, to‘rt qirrali dumaloq do‘ppilar va cho‘zinchoq qalpoqcha. Chust do‘ppilari naqshining keskinligi bilan (bodom donasi to‘la, mo‘ylovchasi kalta va keskin burilgan) va pastki chetining balandligi bilan ajralib turadi. Farg‘ona vodiysi do‘ppilarining boshqa turlari – «Sandali», «Akka ikki so‘m», «Chimboy», «Surkachekma» va boshqalar naqshlarining soddaligi bilan ajralib turadi. Samarqand do‘ppilari «piltado‘zlik» uslubiyotida bajarilgan. Do‘ppilarning boshqa turlari ham bor urgutcha «qalpoq», Buxoroning zar tikilgan do‘ppilari, shahrisabzcha «gilam do‘ppi», Kitol va Shahrisabz do‘ppilari «sanama» va «chizma», «taq‘ya», «tayxa», «chumakli», «kush» – Xorazmning erkaklar va ayollar do‘ppilari. Do‘ppilarda eng ko‘p tarqalgan naqshlar qalampir nusxa do‘ppi (poklik va barcha foni narsalardan voz kechish ramzi), xoch, patlar, bulbul, qush naqshlari (oliy donolik ramzi), atirgul shoxi (tinchlik va go‘zallik ramzi), muqaddas arab yozuvlari va boshqalar



uchrar edi.

(10-rasm) To‘y

Siz karnay-surnaylar ovozi, nog‘araning taka-tumini uzoqdan eshitgan zahotingizoq to‘y bo‘lyapti, deb yugurasiz. Ha, to‘yning belgisi, xabarchisi-karnay-surnay, nog‘aralar va Siz.

To‘y o‘z nomi bilan -yaqin do‘st-yor, qarindosh-urug‘ diydoriga, shirin taomlarga, yaxshi kuy va qo‘shiqqa, kurashu ko‘pkari tomoshasiga, bayram shodiyonalariga, kulgi va quvonchga to‘yishdir.

Bizning o‘zbek xalqi O‘rta Osiyo mintaqasidagi boshqa qardosh xalqlar singari juda qadim zamonlardan buyon to‘y qilib, elga osh berib klegan. To‘ylar, odatda, kichik bayramlardek o‘tkazilgan. To‘yning ham turlari juda ko‘p. beshik to‘yi, xatna-sunnat to‘yi, nikoh to‘yi, payg‘ambar to‘yi, hovli to‘yi, yosh sanalari bilan bo‘g‘liq bo‘lgan to‘ylar va hokazolar.

To‘ylar ko‘pincha qadimda qish faslida o‘tkazilgan. Chunki bu faslda dehqon va kosibning qo‘li ko‘proq bo‘sh bo‘lgan. To‘y-bu ko‘pchilik to‘planib nishonlaydigan ommaviy marosim. Qadimda to‘ylarda ota-bobolarimiz birato‘lasi

kurash, ko'pkari, askiya, masharabozlik, dor o'yinlari, boshqa turli tomoshalar ko'riklarini o'tkazishgan. Xalq orasidan pahlavonlar, san'at ishqibozlari, dovyurak, epchil chavandozlar tabiiy tanlanib, ajratib olingan.

Beshik to'yda yangi bo'shangan, beshikda bolasini emizib turgan onaga non tishlatib, bu non bolalarga olib qochdirilgan. Beshik narisiga, ayvongashirinliklar, tuli meva qoqilari sochilib, bolalarga talashib-tortishib tanovul qildirilgan. Bu bilan yangi tug'ilgan bolaning umri shirin, mo'l bo'lib, uzoq yillar hayotda sochilgan rizq-qo'zini yig'ib-terib eb yursin, degan ma'no anglashilgan. Beshik to'yida bolani chillasi chiqib, uni beshikka belash marosimida ikki turmush ko'rgan, ajralgan xotinlar irim qilib qo'yilmagan. Beshikka muqaddas hisoblangan daraxt tug'dona shoxi kesib olib, osib qo'yilgan. Bolaning beshik yostig'I ostiga pichoq, non parchasi qo'yilgan. Isiriq tutatilib, tumor osilgan.

Beshik to'yi bolar uchun juda-juda quvonchli bayramdir. Chunki, ular o'z saflariga no'malum bir bolaning kelib qo'shilayotganidan shodlanadilar. Umuman olganda, bolalik olami juda ham go'zaldir. U har bir kichik narsadan xursand bo'ladi. Buyuk oqin Abay behuda mana bunday demagan: Go'dak uchun beshigi-kattakon olam, Onasining oq ko'ksi-jonajon olam: Keng sahro ham tor kelar ulg'ayganida, O'toviday ko'rinar bepoyon olam.

Nikoh to'yida esa bo'y etgan qi-yigitning turmush qurishi bilan bog'liq bo'lgan qadimiy, an'anaviy odat-marosimlar amalga oshirilgan. Kuyov bo'lmish yigitga qo'yiladigan shartlarni Siz sevib o'qigan ertaklaringiz, baxshi bobolaringiz to'qigan dostonlardan yaxshi bilasiz. Oddiy xalqda kuyov bolaga o'tin yerdirib, er choptirib, chavandozligini, kurash tushishini, kamondozligini, kosib-ustaligini sinab, imyihon qilib ko'rishgan.

Qadim ajdodlarimizda o'zaro kelishilgan holda bo'lajak kelinni olib qochish rasm bo'lgan. "O'g'irlar " kalingan qizni yigit nikohlab olishi uchun muayyan qonun-qoidalar asosida to'y tadorigini ko'rishgan. Shu munosabar bilan nikohdan oldingi va keyingi marosimlar amalga oshirilgan. Turkiy xalqlarda hamma ma'noda qizning bahosi baland bo'lgan. Shuning uchun kuyov tomon kelin

tomonga albatta qalin to‘lagan. Bu to‘lov pul, oltin-kumush, qo‘y-mol, gilam va kigiz shakllarida bo‘lgan.

Kelinni tushirib olish marosimi, ayniqsa, qiziqarlidir. Qadimiy ajdodlarimiz o‘t-olovga sig‘inishgani tufayli, otda, tog‘a etaklovida kelgan kelinni (hozir engil moshinalarda) kuyov bola otdan tushirib, darvozaoldida yoqib qo‘yilgankatta gulxan atrofidanuch bora aylantirib, so‘ng chimildiqqacha ko‘tarib olib kirgan. Bu bilan ajdodlarimiz yangi oilani olov taftida har xil ins-jinslardan, yomon ko‘zlardan tozalagan. Ikkinchidan, er kishi o‘z jufti haloli, turmush hamrohi bo‘lgan ayolnihamisha izzat-hurmatda, qo‘lda ko‘tarib yurishini ramziy ravishda ifoda qilgan.

Xorazmda qadimdan xonadonga kelin bo‘lib tushgan yangi oila a‘zosi bir yil davomida o‘z qaynonasi bilan og‘iz ochib gaplashmaydi. O‘g‘il o‘stirganning xizmatini qiladi, topshiriqlarini bajaradi, buyruqlarini quloq qoqmay ado etadi, ammo churq etib, og‘iz ochmaydi. Bu arazlagani, iddaosidan emas, odob-andishasidan, istihola qilganidan shunday muomalada bo‘ladi. Kelin birinchi farzandini tug‘ib, uni beshikka belaganidan keyin qaynona-oyisi bilan gaplashish huquqiga ega bo‘ladi.

Qaynота-kelin munosabatlari yana-da murakkabroq. Kelin nech yil davomida tug‘ilishidan qat’i nazar, to‘rt farzand ko‘rguniga qadar o‘z qaynotasi bilan gaplashmaydi. Qaynота otaning topshiriqlarini bajaradi, yumushiyu xizmatini qovoq-tumshuq qilmay o‘rniga qo‘yadi. Faqat bu ijronigungu saqovdek, hatto ovozi va shovrini ham chiqmasdab bajaradi. Bu ham odob, andisha, istihola tushunchalarining eng oliy namunalaridir.

Albatta, kelin-kuyov to‘y kunlari maxsus kiyim-boshlar kiyishgan. Bu kiyimlar yurtimizning qaysi vohasiga qarab, bir-biridan farq qilgan. Masalan, Samarqand, Buxoroniki bir toifa bo‘lsa, Surxon va Qashqa vohasiniki ikkinchi toifa, Farg‘onaniki o‘zi bo‘lak bo‘lsa, xorazmlik kelin-kuyovning kiyim-boshi tamoman o‘zgacha bo‘lgan. Bu tashqi belgilar ham xalqimiz madaniyatining juda boy va qadimligidan dalolat beradi.

Nikoh to'yigacha quda tomonlar o'rtasida maslahat oshi berilib, so'ng unashtirish marosimi o'tkazilgan. Xalq orasida bu odat "non sindirish" deb ham ataladi. Fotiha to'yidan keyin kelintushgan xonadonga hayit, bayram kunlari hayitliklar jo'natilgan. Kelin tushishining o'zi katta bir marosim bo'lib, quda tomonlar azaldan amal qilib kelinayotgan taomilga qilishgan. To'y kunidagi to'y jo'natish, tortishmachoq-kelin oyog'iosiga tashlangan poyandoz talashish marosimlarining o'zi bir to'ydir. Chimildiq (go'shanga) ga kirish bilan bog'liq odatlarning o'zi bir jahon. Kelin-kuyovning ustidan sochqi sochish, kelin bola va yangalar bilan kuyov to'ra va uning jo'ralari o'rtasidagi aytishuv, "belbog' echdi", "kelin ko'tardi", "oyoq bosdi" odatlari shular jumlasidandir. Nikoh to'yidan keyin bo'ladigan marosimlar ham xalqimiz jo'mard tabiat, qo'li ochiqlik odati, to'kin-sochin, erkin hayoti mazmunidan kelib chiqqan. Bular kelinning yuzini ochish, kelin salomi, kuyov tomon va mahalla xotin-qizlarning kelin ko'rdisi va so'nggisi-yoyilgan sepi yig'ishdir. Bu marosimni xalq orasida "joy yig'di" ham deyishadi. "Joy yig'di" da kutilgannatijani bermaganayrim kelinlar ertasi qo'tir eshakkka teskari o'tqazilib, yo'l-yo'lakay masharalab kulib, sazoyi qilinib, hazar bilan onasinikiga eltib tashlangan. Bu isnod qolgan barcha oilalarga qizlari, bo'lajak kelinlari uchun katta saboq rolini o'tagan.

Hovli to'yida qishloqdoshlarning, qarindosh-urug'larning katta hashari bilan qurilgan yangi imoratga ko'chib kirilgach, xudoyidan keyin maxsus to'y qilingan. Bu to'y ham ko'proq kuz yo qishda o'tkazilgan. Hovli to'y munosabati bilan yanada shinam, ko'rkam, orasta, xonakilashgan. Hovli to'yidan keyingina yangi imorat o'zlashtirilgan, unda yashashga o'rganilgan, kirishilgan. Bu to'y ham nikoh to'yidek oila uchun eng baxtiyor, tantanavor marosimdir. Boshpana, imorat hovlilik yosh oila endi oyoqqa turib olgan. Barqaror, qabila, qishloq, elatning kori xayriga yaraydigan mustahkam qo'rg'on sanalgan. To'ylarning har qishloqda katta-kichikni yaxshi taniydigan kayvonisi, qo'li engil sartarosh-ustasi, qo'li shirin oshpazi, epchil dasturxonchisibo'lganidek, alohida aytimchi-jarchisi ham albatta bo'lgan. Bu aytimchi-jarchilar zamoniga, joyiga, qishloqlar xududining katta-kichikligiga qarab, piyoda, otda, eshakda, velosiped, motosikl ya mashinada o'qti-

o'qtin to'xtab, jar solganlar. Ayrim mo'ysafidlar, nogironlar, qulog'i og'ir keksalar, diniy arbob, hurmatli kishilar qishloq oqsoqoli tomonidan maxsus kishi yuborib, to'yga chorlaganlar.

Sho'ro zamon davrida, to'y marosimining mazmuni ham shakli-shamoyili ham ancha o'zgardi. To'g'riligini zamonlarda ham o'zbekning to'yida qozoqning polvoni, qirg'izning o'lanchisi, tojikning ustasi, turkmanning shavandozi, albatta, izzatli mahmon sifatida faol ishtirok etgan. Tabiiyki, o'zbek to'yida bu xalqlar lafzi shevasi ham jaranglab turgan. Biroq yangi truzumga kelib, bu qirralar yanada kuchaydi. To'ylar ham baynalmilallikning eng yorqin misoli-namunasiga aylandi. Bu marosim osiyocha-ovro'pacha omuxtalashdi. Xalqimizning odat va marosimlari bir-birlariga qo'shib, chatishib, omuxtalashib ketdi. Bundan yangi shakl va mazmun hosil bo'ldi. Demak, to'y marosimlari yangi qiyofaga kirdi. Hovli to'yi, yosh va tavalludning ma'lum pog'onalari bilan bog'liq bo'lgan nishonlash ommaviy marosimlari paydo bo'ldi. Bular kumush to'y-turmushning birgalikda kechgan 25 yili, oltin to'y-50 yili, brilliant to'y-75 yili kabi turlaridir. Ota-ona, bobo-buvilaringizning turli yubiley kunlari 50, 60, 70, hatto 100 yillik to'ylarini ko'pchilik bilan nishonlash odat tusiga kirib qoldi. To'yning xokisor, bejirim o'tkazilishi ham to'y egasining ma'naviy qiyofasi yuksakligini ko'rsatadi. Poraxo'r-xoromxo'r kimsalar to'y bahonasida o'zlarining kimliklarini, kuch-quvvatlarini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'ladilarki, bu ma'naviy tubanlikdir. Ko'pchilikning holatiga qarab, o'shalardan kam ham emas, ko'p ham emas-o'rtamiyona to'ylar o'tkazish zarur.³

1.3 Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi

Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi aniq manzillar bo'yicha aniqlanmagan. Maxsus turlarni hosil qiluvchi ishlab chiqarish sohalari, xalq hunarmandchiligi markazlari, milliy o'yinlar rayonlari va hokazolar hozirgacha aniq manzillar bo'yicha ro'yxatga olinmagan.

³ <https://www.google.com>

Samarqand shahridagi o'lkashunoslik va O'zbekiston xalqlari tarixiy muzeyidan ham O'zbekistonda hunarmandchilik rivojlangan tumanlar, yoki milliy folklor guruhlari, zardo'zlik yoki milliy o'yinlarning aniq geografik manzillari topilmadi.

Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasini birinchi bo'lib R.Hayitboyev. R.Amriddinova ishlab chiqqan. (1-jadval).⁴

1-jadval

Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi

№	Turizmdagi maxsus turlar	Turizmda qiziqish, foydalanish obekti	Ommaviy rivojlangan, joylashgan tumanlar
1	Milliy madaniyatga qiziqish turizmi	Urf-odatlar, oila hayoti, milliy etiket, kattalar va yoshlar munosabati, uy tutish, kelin to'y, sunnat to'y, mehmon kutish va mehmondorchilik marosimlari	O'zbekiston Respublikasining barcha viloyatlari, shaharlari, tumanlari, qishloqlari
2	Qishloq va fermer hayoti turizmi	Qishloqlarning turli - tumanligi va tabiiy – tarixiy davrda yuzaga kelishi, qishloq aholisi hayoti, fermerlar hayoti va faoliyatiga qiziqish.	Respublikamiz hududlaridagi qishloqlar, tog'dagi qishloqlar, suv havzalaridagi qishloqlar
3	Etnik va sog'inish turizmi	Xalqlar, ellar, urug'lar, ularning yashash tarzi, millatlarning urf-odatlarini, kelib chiqishi tarixi, joylashishi, o'zaro aloqalari. Xalqlarning, millatlarning har xil sabablar bilan dunyo bo'ylab tarqalib ketishi, ularning bir-birlariga intilishi, sog'inishi	-O'zbekiston va dunyo mamlakatlari doirasida - O'zbekiston Respublikasi va qo'shni Markaziy Osiyo davlatlari
4	Sarguzasht turizmi	Tabiat mintaqalariga,	O'zbekistonda

⁴ R.Hayitboyev. R.Amriddinova - «Turizmning maxsus turlari». Uslubiy qo'llanma.Samarqand 2008

		uzoq yurtlarga, ellarga, tog'larga tavakkaliga yoki reja asosida piyoda yoki transportda yo'lga chiqish	rivojlantirishga qiziqish juda kam
5	Milliy san'at turizmi	Milliy san'at, qo'shiqchilik, raqs, rassomchilik, baxshilar hayoti, askiyalar, laparlar, milliy folklor	O'zbekiston Respublikasining hududlarida
	5.1 Qo'shiqchilik	5.1 Xorazm usuli	Xorazm, Buxoro, Qoraqalpog'iston viloyatlari
		5.1.2. Samarkand usuli	Zarafshon vodiysi
		5.1.3. Farg'ona usuli	Farg'ona vodiysi
	5.2. Qo'shiqchilik-da baxshilar faoliyati	5.2.1 Qashqadaryo-Surxondaryo usuli	Qashqadaryo viloyati, Surxondaryo viloyati,
		5.2.2. Zarafshon – Nurota usuli	Samarkand viloyati, Navoyi viloyati
		5.2.3. Xorazm usuli	Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston
	5.3 Raqs san'ati	5.3.1. Xorazm usuli	Xorazm, Buxoro viloyatlari
		5.3.2. Qoraqalpog'cha usuli	Qoraqalpog'iston
		5.3.3. Buxorocha usul	Buxoro viloyati, Tojikiston Respublikasi
		5.3.4. Farg'onacha usul	Farg'ona viloyati, Toshkent viloyati,
	5.4 Askiyalar, aytishuvlar	5.4.1. Askiyalar	Farg'ona vodiysi
		5.4.2. Aytishuvlar	Qoraqalpog'iston, Xorazm
	5.5 Milliy rassomchilik va haykal-taroshlik	5.5.1. Rassomchilik	Samarkand, Buxoro, Xiva, Toshkent
		5.5.2 Haykaltaroshlik	Samarkand shaxri, Toshkent shaxri
	5.6. Milliy folklor san'ati	5.6.1. «Boysun» folklori	Surxondaryo viloyati, Boysun tumani
		5.6.2 «Lazgi» folklori	Xorazm viloyati
		5.6.3 «Besh qarsak» folklori	Samarkand viloyati Urgut tumani
		5.6.4 «Oyguloyim» folklori	Qoraqalpog'iston
6	Tabiiy-tarixiy	6.1.1. Sharsharalar	«Arslonbob»-Farg'ona

	tasvirlar turizmi 6.1 Tabiat muzeylari	6.1.2. Qadimiy buloqlar	“Baxmal”, “Forish”, «G‘allaorol» tumanlari Jizzax viloyati, «Nurota» tumani, Navoiy viloyati va hok.
	6.2 Qoyatoshlardagi qadimiy rasmlar	6.2.1. Tabiat haykallari	Urgut tumani, Nurobod tumani, Samarkand viloyati, «G‘allaorol» tumani Jizzax viloyati, Nurota tumani Navoiy viloyati
	6.3 Hayvonot bog‘lari	6.3.1. Noyob hayvonlar yashash tarzi	Toshkent shahri Termez shaxri
	6.4. O‘lkashunoslik muzeylari	6.4.1. Dunyo tabiatidagi hayvon va parrandalar kolleksiyasi	Viloyatlar markazi bo‘lgan shaharlar
7	Milliy hunarmandchilik turizmi	7.1.1. Yog‘ochga o‘yma shakl solish	Xorazm usuli, Urgut usuli, Samarkand usuli, Buxoro usuli, Farg‘ona usuli
	7.1. Duradgorlik va uning maktablari	7.1.2. Sovg‘alar, shkatulkalar	Buxoro usuli, Samarkand usuli
	7.2. Kulolchilik va uning maktablari	7.2.1. Sopol buyumlar yasash	Xorazm usuli, Buxoro usuli, Samarkand usuli, Farg‘ona usuli
	7.3. Kashtachilik	7.3.1. Matoga rangli Gul solish	Buxoro usuli, Samarkand usuli, Jizzax usuli, Cho‘lliklar usuli
		7.3.2. Zardo‘zi kashtachilik	Urgut usuli, Buxoro usuli, Samarkand usuli, Farg‘ona usuli
	7.4. Milliy liboslar	7.4.1. Milliy do‘ppi	Farg‘ona viloyati, Namangan viloyati, Buxoro viloyati, Xorazm viloyati
		7.4.2. Milliy to‘n	Xorazm viloyati, Surxondaryo viloyati, Toshkent viloyati, Farg‘ona viloyati, Jizzax viloyati

		7.4.3. Atlas va beqasam buyumlar	Margʻilon shaxri
		7.4.4. Baxmal buyumlar	Samarkand shaxri
	7.5 Milliy ustachilik	7.5.1. Temirchilik, qadimiy asboblari	Respublikadagi tumanlar
		7.5.2. Misgarlik	Samarkand, Buxoro, Fargʻona, Xiva
		7.5.3. Musiqasozlik	Samarkand Xorazm, Fargʻona vodiysi
		7.5.4. Beshiksozlik	Samarkand, Buxoro, Fargʻona vodiysi, Urgut
		7.5.5. Aravasozi	Qoʻqon
		7.5.6. Sandiqsozlik	Urgut, Samarqand, Buxoro, Fargʻona vodiysi
		7.5.7. Egarsozlik	Baxmal Tumani, Jizzax viloyati, Qashqadaryo viloyati
		7.5.8. Mahsidoʻzlik	Namangan
		7.5.9. Gilamchilik	Xorazm viloyati, Jizzax viloyati, Nurota tumani Navoiy viloyati,
		7.5.10. Palos toʻqish	Choʻl xalqi, Jizzax va Navoiy viloyati
8	Milliy oʻyinlar turizmi 8.1. Koʻpkari – uloq	8.1. Chavandoz ot ustidagi tortishuvda marraga uloq olib borishi-koʻpkari	Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy
9	8.2. Milliy kurash	8.2. Polvonlar kurashi musobaqasi	Buxoro viloyati, Qashqadaryo viloyati, Surxondaryo viloyati
10	8.3. Qoʻchqor urishtirish	8.3. Qoʻchqor urishtirish musobaqasi tomoshasi	Xorazm, Qoraqalpogʻiston, Buxoro viloyatlari
11	8.4. Xoʻroz urishtirish	8.4. Xoʻrozlar jangi tomoshasi	Samarkand shahri, Buxoro shahri, Fargʻona vodiysidagi shaharlar

12	8.5. Bedana urishtirish	8.5. Bedanalar jangi tomoshasi	Samarkand, Buxoro, Farg'ona vodiysidagi shaharlar
12	8.6.Dorbozlik	8.6 Baland tortilgan arqonda yurish, o'yin ko'rsatish	Toshkent viloyati, Farg'ona viloyati
14	G'orshunoslik turizmi	9.Tabiatdagi yer osti qasrlariga sayohat. 9.1 Amir Temur g'origa qiziqish	O'zbekiston hududidagi g'orlar (400 makonda), Qashqadaryo viloyati
15	Agroturizm	10.Xalqimizning dehqonchilik usullariga qiziqish(xalqaro turizm uchun)	O'zbekistonning sug'oriladigan yerlar hududlari
16	Xalqaro polvonlar bellashuvi turizmi	Xorij mamlakatlarida	Xorij mamlakatlarida
17	Hayot uchun xavfli sport o'yinlari turizmi	Xorij mamlakatlarida	Xorij mamlakatlarida

Turizmdagi maxsus turlardan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Farg'ona vodiysi va Shahrisabz shaharlarida majmuali foydalanishning tashkiliy jihatlari tezkor usullarda ishlab chiqilishi kerak.

Malumki, xalqaro turistlar oqimi qayd qilingan shaharlarda kuzatilmoqda. Bu turistlar asosan tarixiy va madaniy obidalarga va ziyoratgoh joylarga tashrif qilmoqdalar. Ana shu turistlarni ushbu shaharlardagi maxsus turizm turlariga takliflar qilish, qiziqtirish usullarini qo'llash vaqti keldi.

Bunday maqsadlarni, rejalarini amalga oshirish uchun shaharlardagi maxsus turlarning jahon andozalari bo'yicha shakllantirilgan, sifatli naqshlangan buklov reklamalarini o'zbek-rus va ingliz tillarida axborot va tushuntirishlar bilan mehmonxonalar, turistik firmalarga tarqatish va bu buklovlarni xorij davlatlardan kelgan turistlar bepul yoki sovg'a sifatida olishlarini taminlash amalda kutilgan usullardan bo'lishi shubhasizdir. Bu buklovlar turist vataniga qaytganidan keyin uning ko'plab vatandoshlarini qiziqtirishi mumkin.

Turizmdagi maxsus turlarning hunarmandchilik, ustachilik markazlari shaharlarda joylashganligi uchun shahardagi talabalar, kollej va akademik litseylar

o'quvchilarini shuningdek atrof tumanlardagi maktablar o'quvchilarini imtiyozli ekskursiya usulida bu hunarmandchilik va ustachilik markazlarini ko'rishlarini taminlash ichki turizmning rivojiga ijobiy tasir ko'rsatishini yaxshi anglashimiz kerak.

Turizmdagi maxsus turlardagi milliy o'yinlarimizni turistik firmalar yoki turistik tashkilotlar tashkil qilishiga aslo hojat yo'q. Bu o'yinlarni xalqimiz yilning mavsumlarida o'zlari doimo tashkil qilmoqdalar. Turizm sohasidagi mutaxassislarning vazifasi turistlarni bu milliy o'yinlarga taklif qilish hisoblanadi. Taklifgacha esa o'yinlarga yetib borish marshrutlari aniqlangan va turistlarga ko'rsatiladigan barcha xizmatlar ko'rsatish majmualari, sharoitlari yaratilishi talab qilinadi.

II-BOB. O‘zbekistonda urf–odatlar va an‘analardan turizmda foydalanishning ijtimoiy iqtisodiy ahamiyati.

2.1. Mamlakatimizda xalqaro turizmni rivojlantirishda urf – odatlar va an‘analarning o‘rni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yilning asosiy yakunlari va 2014-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzalarida mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish va servis sohasi 2013-yilda jadal sur‘atlar bilan rivojlanib, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000-yildagi 37 foiz o‘rniga 53 foizni tashkil etganligini, xizmatlar va servis sohasining joriy yilda keskin o‘sishi, avvalo qurilish, transport, moliya-bank va axborot-kommunikatsiya sohalarida, aholiga tibbiy va kommunal-maishiy xizmatlar ko‘rsatishda, ayniqsa, qishloq joylarda bu sohani yanada kengaytirish uchun hali-beri foydalanilmayotgan katta imkoniyatlar mavjudligini ta’kidlab o‘tdilar.

Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida turizm bozorini rivojlantirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiy o‘shish katta miqdordagi tovarlar va sifatli xizmatlar ishlab chiqarishni, shuningdek, aholi turmush tarzining yuqori bo‘lishini ta’minlaydi.

2.Xalqaro turizmni rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi resurslardan foydalanishda minimal harajatlarni sarflagan holda maksimum foydaga ega bo‘lishda namoën bo‘ladi.

3.Aholining madaniyati va ma’lumoti darajasini oshirish, respublikaning turli mintaqalarida jahon sivilizatsiyasi, madaniyati va san’ati bilan tanishtirish.

4.Turli xil turistik xizmatlar ko‘rsatish yo‘li bilan o‘zaro madaniy -tarixiy va milliy qadriyatlarni ayirboshlash.

5.Sifatli asosiy va qo‘shimcha xizmatlarni ko‘rsatish, ularning sifatini jahon standartlariga yetkazish. Turizm sanoatining moddiy - texnika ba’zasini valyuta tushumi ërdamida davlat yo‘li bilan ta’minlash hamda turistik xizmatlarga chet ellik turistlar tomonidan talabni shakllantirish.

Bundan tashqari, xalqaro turizmning rivojlanishi aeroportlar va avtomobil yo‘llari, magazinlar, kinoteatrlarni qurish va ta‘mirlash, shaharlarni obodonlashtirish, ědgorliklarni qayta tiklash, massivlarni himoya qilish, suv havzalarini tozalash va hokazolarga turtki bo‘ladi.

Xalqaro turizm O‘zbekiston uchun xalq xo‘jaligining ustivor tarmoqlaridan biri bo‘lib, kelajakda valyuta tushumlarining asosiy manbasiga aylanishi mumkin. Tabiiyki, bu birinchi navbatda kadrlarni tayěrlash, yuqori klassli mehmonxonalar qurish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishni talab qiladi. Respublikada xalqaroturizmning rivojlanishini turizm vaekskursiyalarbo‘yicha respublika kengashi, shuningdek, “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi tomonidan tartibga solinadi.

Ajdodlarimizning asrlar davomida yaratgan bebaho ma‘naviy va madaniy merosini tiklash, asrab-avaylash hamda milliy qadriyatlarimizni izchil rivojlantirish jamiyatimiz taraqqiyotining asosini tashkil etadi.

Xiva shahrida o‘tkazilgan “Xorazm madaniyati kunlari” festivali “Sharq taronalari” xalqaro festivali ana shunday xayrli ishlarning uzviy davomi bo‘ldi. Ichan qal‘ada keng miqyosda xalq sayillari, “Buyuk Ipak yo‘li” bo‘ylab karvonlar, viloyatning barcha shahar va tumanlaridan kelgan folklor jamoalari, bezakli xalq amaliy san‘ati, hunarmandlar yarmarkasi, milliy o‘yinlar hamda liboslar namoyishlari o‘tkazildi. Ko‘hna Ark maydonida viloyat davlat qo‘g‘irchoq teatri, Xiva hamda Qo‘shko‘pir tumanlari sirk jamoalarining tomoshalari namoyish etildi. Shuningdek, Ichan qal‘a hududida joylashgan “Oq masjid” oldida hazorasplik badiiy havaskorlar tomonidan tashkil etilgan “Kelinsalom”, xivalik onaxonlarning “Lachak to‘yi” marosimlari hamda Toshhovli majmuasida namoyish etilgan Xiva tumani “Doston” folklor-etnografik xalq ansamblining sahnalashtirilgan dasturlari tomoshabinlarda katta qiziqish uyg‘otdi. Festival doirasida diyorimizda sayyohlikni rivojlantirish va viloyatning sayyohlik salohiyatini oshirish maqsadida tashkil etilgan “Uzbekistan travel workshop — 2013” mintaqaviy turistik forumi va Baxshi-shoirlar, oqinlarning an‘anaviy respublika ko‘rik-tanlovi o‘tkazilgani madaniyat kunlariga o‘zgacha shukuh

bag'ishladi. "Uzbekistan travel workshop — 2013" mintaqaviy turistik forumiga mamlakatimiz sayyohlik sohasining yetakchi mutaxassislari yig'ildilar. Ushbu tadbirda yurtimizda sayyohlikni rivojlantirish istiqbollari va sohaning dolzarb masalalariga e'tibor qaratildi. Yurtimizda turizm sohasida mintaqaviy branding, xorijiy sayyohlar uchun turistik mahsulotlar yaratish ishlarida o'z yechimini kutayotgan muammolar, chet ellik sayyohlarni yurtimizga keng jalb etish mexanizmini kuchaytirish, sayyohlikning an'anaviy va muqobil turlarini rivojlantirish sayyohlik xizmatini yaxshilash hamda hududlarda ekologik va qishloq turizmini rivojlantirish kabi boshqa masalalar forum kun tartibidan keng o'rin oldi. Baxshi-shoirlar va oqinlarning an'anaviy respublika ko'rik-tanlovida esa Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardan tashrif buyurgan ellikdan ziyod baxshi-shoirlar, oqinlar va xalfalar o'z dasturlari bilan qatnashib, festivalga ko'tarinki ruh hamda o'ziga xos fayzu tarovat olib kirdilar. Mazkur tanlov yurtimizdagi nomoddiy madaniy merosimizning noyob durdonalari hisoblangan baxshichilik va dostonchilik san'atini rivojlantirish, baxshi-shoirlar, oqinlarning ijodiy ishlari bilan yaqindan tanishish, yangi iste'dodlarni kashf etish va ularning ijodini keng targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi. Madaniyat va san'at bayramiga aylangan tadbir so'ngida "Xorazm madaniyati kunlari" festivalida faol qatnashgan ishtirokchilarni taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Ularga Madaniyat va sport ishlari vazirligi, respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi, viloyat hokimligining diplomlari hamda esdalik sovg'alari topshirildi⁵.

Turistik xo'jalik jahon iqtisodiyotining eng serdaromad tarmog'i hisoblanadi. Hozirgi kunda jahon savdo aylanmasining 7% i xalqaro turizmga to'g'ri keladi. Jahonning ko'p mamlakatlari uchun turizm tashqi savdo aylanmasi dadaromadning muhim moddalaridan biriga aylangan. Turistik biznes Meksikaga

⁵ <http://xs.uz>

valyuta daromadining 44%, Portugaliya 28%, Avstriyaga 23%, Italiyaga 41% beradi. Xalqaro turizm sohasining yetakchi kichik tarmog'i bo'lib, ichki infrastruktura, servis va ko'rsatiladigan xizmatlar sifatiga bog'liq bo'ladi.

2.2. Milliy urf–odatlar, an'analar va hunarmandchilik turizmini rivojlantirishning ijtimoiy iqtisodiy ahamiyati.

Milliy hunarmandchilik rivojlandi, milliy urf – odatlarimiz tiklandi. Mamlakatimizda hunarmandlar markazi tashkil etilishi, bu soxadagi tadbirkorlarga davlat tamonidan qullab qo'vatlanib erkinliklar berishi. Turizm sohasida ham ko'p rivojlanishlar bo'ldi, etnik turizm yaxshi rivojlonayotgan turizm sohasi bo'lib shakillandi. Turizmning bu turi ommabop turlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Oddiy xalq bilan tanishash ularning ar'nalarini ko'rish, milliy taomlarini tanavur qilish, hunarmandchiliklari bilan tanishish, fikrlar eshitish va h.k.

Oddiy chaqaloqning tug'ilishi, nikoh to'yi, hatto aza marosimlari ham bir necha ming yillar mobaynida shakllanib, yetib kelgan. Xalqimiz turistlarga milliy kiyimlar, qo'shiqchilik va raqslari bilan bir qatorda, urif – odatlarning ajralmas bo'lagi bo'lgan bu milliy oshxonalarimizdir. Turistlar uchun yorqin taassurotni milliy hunarmandchilik qoldiradi, chunki qo'l mehnati asosida yaratilgan gilamlar, taqinchoqlar, kashtachilik, keramika mahsulotlari turistlarni o'ziga rom etadi. Bu qo'l mehnati mahsulotlari suvinir sifatida ham taklif qilinadi.

Mustaqil rivojlanish ijtimoiy voqelikka aylangan hozirgi kunda o'zbek xalqi etnik madaniyatining taraqqiyot yo'llarini aniqlab olish, ilmiy va amaliy kuchlarni uyg'unlashtiruvchi dasturlar ishlab chiqish talab etiladi. Madaniyatni rivojlantirish va prognozlash muammolari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar bu sohada aniq bir metodologiya hali ishlab chiqilmaganini, madaniy jarayonlarni o'lchash, rivojlanishning samarali yo'llarini topish murakkab vazifa ekanligini yakdillik bilan qayd etadilar. Mustaqillik xalq an'anaviy madaniyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni yaratganidan kelib chiqib, U.H. Qoraboyev uni, xalq an'anaviy madaniyatining joylardagi ko'rinishlarini avaylab-asrash, xalq talantlarini izlab topish va ularga zarur uslubiy yordamlar ko'rsatish, madaniyat

muassasalari faoliyatini takomillashtirish, ommaviy tadbirlar o'tkazib turish, ijodiy uyushmalar tuzish orqali rivojlantirish mumkin deb ko'rsatadi. Shubhasiz, xalq etnik madaniyatidagi ijobiy jihatlarni avaylab-asrash uchun ijtimoiy-tarbiyaviy imkoniyatlardan keng foydalanish zarur. Xalq ijodi va talanti azaldan erkin ijodiy faoliyat, kishining olamni idrok etishga yo'naltirilgan badiiy-estetik qiziqishlarining in'ikosi sifatida rivojlanib kelgan. Ixtiyoriylik, insonning o'z ruhiy-ma'naviy kechinmalarini ifoda etishga bo'lgan ehtiyoji etnomadaniy jarayonlarni rang-baranglashtirgan, turli madaniyatlar o'rtasidagi aloqalarga ijtimoiy-zaruriy tus bergan. Millat, xalq o'zligini anglagan sayin ushbu xususiyatlarni, etnomadaniy omillarni umumlashtirishga, asrashga, o'z mavjudligining ijtimoiy-tarixiy qonuni, sharti, determinanti sifatida ulardan foydalanishga intilgan. Kommunistik tuzum xalq madaniyati va ijodiga siyosiy ideologik tarbiya vositasi sifatida yondashdi, unda milliy, hududiy, o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash, mustaqil tarzda xalqaro madaniy aloqalar o'rnatish imkoniyatlari borligini hisobga olmadi. O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o'tishi xalq madaniyati va ijodiga xo'jalik hisoblarini, madaniyat marketingini olib kirdi. Natijada Respublikamizda davlat va jamoat tashkilotlari (masalan, kasaba uyushmalari)ga qarashli madaniyat o'choqlari va xalq ijodi bilan shug'ullanuvchi ijodiy uyushmalardan tashqari yarim xo'jalik, to'la xo'jalik usulida ishlovchi va xususiy madaniyat maskanlari ham yuzaga keldi. Masalan, Toshkent shahridagi xususiy golf-klub, poni klub, kafe-klub va kompyuter-klublar misol bo'lishi mumkin. (Xalq etnik madaniyatiga, an'anaviy ijod, urf-odatlar, an'analar, marosimlar va ommaviy bayramlarga taalluqli bunday maskanlar uchramaydi). Ularning asosan yirik shaharlarda va shunday madaniy xizmat turlariga ehtiyoj yuqori joylarda tashkil etilishi kuzatiladi. Lekin bu kishilarning etnik madaniyatga qiziqishi yo'q, degan fikrni anglatmaydi. Maxsus tadqiqotlar ko'rsatadiki, mustaqillik yillarida xalq an'anaviy ijodi va san'atiga bo'lgan qiziqishlar keskin oshgan. Kishilarning xalq an'anaviy ijod turlariga bo'lgan qiziqishi shaharda ham, qishloqda ham yuqori, shuning uchun ular etnomadaniy qadriyatlarni kengroq targ'ib qilishga undaydi. Bir tomondan, kishilarimizda xalq

etnik madaniyatiga qiziqish katta, lekin ularni targ'ib qiluvchi, uyushtiruvchi ijtimoiy-madaniy institutlar Yevropa ommaviy madaniyati an'alariga tayanishga moyil.

«Ommaviy madaniyat» o'tgan asrning o'rtalariga kelib jahonda, ayniqsa, ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti yuksalayotgan davlatlarda keng tarqaldi. Ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi va jahonda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy integratsiyaning kengayishi «ommaviy madaniyat»ni umumplanetar hodisaga aylantirdi.

«Ommaviy madaniyat»ning asosiy vositalari - radio, televideniye, matbuotsiz ijtimoiy-madaniy hayotni, umuman taraqqiyotni tasavvur qilib bo'lmaydi. «Urush va tinchlik» romanini bo'sh vaqtida o'qishi uchun kishiga kamida bir oy kerak, televideniye orqali esa u roman bilan 2-2,5 soat ichida tanishishi mumkin. Bu o'rinda inson yon-atrofdagi informatsiyalarning 95 %ini ko'zi bilan olishini unutmaslik zarur.

O'zbek etnik madaniyatini rivojlantirish xalqimizning nafaqat tarixiy-madaniy qadriyatlarni sevishi, ulardan xabardor bo'lishi, xuddi shuningdek, ularning etnomadaniy hayotda faol sub'ektlar sifatida qatnashishini ta'minlaydigan ijtimoiy omillarga ham bog'liqdir. Bo'sh vaqt va undan foydalanish ijtimoiy hayotga jalb etishning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Vaqtga munosabat - hayotga munosabat, kishining o'z burchiga, hayotiy maqsadlariga munosabatidir. «Vaqtimizning bir qismini tortib oladilar,-deb yozgan edi bundan ikki ming yil oldin Seneka,- bir qismini o'g'iraydilar, bir qismi esa behuda o'tadi. Biroq hammasidan uyatlisi, uni o'zimizning befarqligimiz tufayli yo'qolganidir.» Vaqtning ijtimoiy ahamiyati oshib borayotgan va shaxsning faol hayot tarzi uchun imkoniyatlar kengaygan hozirgi paytda vaqtning qadriga yetmaslik mumkin emas. Chunki, vaqt borliqni, o'z navbatida insonning ham o'zgarishini belgilovchi me'yordir. Shuning uchun ham madaniyatshunoslar bo'sh vaqtni inson ijodiy faoliyatidagi jarayonlar bilan dialektik bog'liqlikda o'rganadi va insondagi ijodiy kuchlarning ro'yobga chiqishini bo'sh vaqtning hajmi va undan foydalanish ko'nikmalari bilan

bogʻlaydi.

Xalqimiz tafakkuri va etnopsixologiyasida oʻz xalqiga xos anʼanalarni saqlab qolish, hatto turmush qiyinchiliklariga chidab boʻlsa-da, ajdodlarimiz tarixiy-madaniy merosini asrash, uni kelgusi avlodlarga yetkazish xususiyati mavjud.

Etnik madaniyat, xalq anʼanaviy ijodi hozir zamonaviy sanʼat bilan uygʻunlashib, modernizatsiyalashib, oʻz navbatida xalq ijodi ham zamonaviy sanʼatni xalqqa, koʻpchilikka yaqin, tushunarli qilish orqali rivojlanish yoʻlidan bormoqda. Shuning uchun etnik madaniyatni faqat uzoq oʻtmishga taalluqli, oʻzgarmaydigan sanʼat, ijod turlari, marosimlar, anʼanalar, bayram va tomoshalar deb qaramaslik, balki, uni xalq ijtimoiy hayoti bilan mudom dialektik bogʻliq, u bilan birga transformatsiyaga uchrab, kishilarning maʼnaviy-madaniy qiziqishlari va innovatsiyalar taʼsirida modernizatsiyalashib keladigan voqelik sifatida qarash kerak.

Etnik madaniyatning rivojlanishini oilaviy yoki mahalla doirasi bilan cheklab, chegaralab boʻlmaydi, aks holda etnik madaniyat oilaviy-maishiy marosimlardangina iborat boʻlib qoladi. U butun jamiyatni, xalqni, millatni ijodiy-madaniy jarayonlar subʼektiga aylanishini hamda maxsus ijtimoiy-madaniy institutlar (maʼnaviyat va madaniyat saroylari, xalq ijodiyoti uylari, teatrlar va b.)ning turizmga faol maʼnaviy-maʼrifiy va targʻibot ishlarini talab etadi⁶.

2.3. Turizmida turistlarning hayot faoliyati xavfsizligini taʼminlash chora-tadbirlari

Hayot faoliyati xavfsizligi mehnat muhofazasining huquqiy, qonuniy asosini Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Oʻzbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va turli vazirliklarning koʻrsatmalari va buyruqlari tashkil etadi.

⁶ Nishonova O J "Etnik madaniyat va marosimlar" Maʼruzalar toʻplami Toshkent - 2009

Oliy Majlisining vakolatlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning muddatini uzaytirish va to'xtatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash kiradi (78-modda)⁷.

Mahalliy hokimiyat organlarning Konstitutsiyamiz tomonidan belgilangan vazifalari qatoriga jumladan quyidagilar kiradi:

- qonuniylikni, huquqiy-tartibotini va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlar belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalar hosil qilish;
- atrof muhitni muhofaza qilish (100-modda).

Konstitutsiyada eng avvalo inson huquqlarini himoya qilish ko'rsatilgan bo'lsa, shu bilan bir qatorda iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar ham himoyalanih asosi berilgan.

Konstitutsiyaning IX bobi iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarni himoyasiga qaratilgan. 36-moddada «Har bir shaxs qonunda ko'rsatilgan tartibda mehnat qilish, erkin kasb tanlash, odilona sharoitlarda mehnat qilish va ishsizlikdan himoyalanih huquqiga egadir» deyilgan va uning davomida «Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan (harbiy xizmat chog'ida, favqulodda holat sharoitida va h.k.) tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi» deyilgan.

Konstitutsiyaning 37-moddasida «Barcha yollanib ishlayotgan fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to'lanadigan mehnat ta'tilining muddati qonun bilan belgilanadi» deb, fuqarolarning dam olish huquqini amalga oshirilishini ta'minlaydi. 38-moddada «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega, xuddi shuningdek pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas» deb fuqarolarimizning hayot xavfsizligi ta'minlangan.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992 il 8 dekabr)

39-moddada «Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega» deb tibbiyot xizmati hech bir cheklanishlarsiz, turli-tuman tibbiyot xizmati korxonalari tashkil etilishi va jumladan malakali tibbiyot xodimlari o'z shaxsiy davolash muassasalariga ega bo'lishi, davolash sohasida raqobat vujudga kelishi bilan Respublikamizda yashovchilar malakali tibbiyot xizmatidan foydalanish imkoniyati ta'minlandi.

Yurtimizda fuqaro mehnati muhofazasini O'zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida» qonuni (1993 y. 6 may), Mehnat Kodeksi (1995 yil 21 dekabr, №161-1), «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida Nizom» (Vazirlar Mahkamasi 1997 yil 6 iyun, 286-qaror) va turli davlat standartlari va ko'rsatmalari asosida huquqiy asosi yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonun jami 5 bo'lim, 29 moddadan iborat bo'lib, ishlab chiqarish usullari, mulk shaklidan qat'iy nazar mehnatni muhofaza qilishni tashkil etishning yagona tartibini belgilaydi hamda fuqarolarning sog'ligi va mehnatini muhofaza qilinishini ta'minlashga qaratilgan.

Qonunning birinchi umumiy qoidalar bo'limida (jami 7 modda): Mehnatni muhofaza qilish – bu tegishli qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amal qiluvchi, insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena va davolash-profilaktika tadbirlari hamda vositalari tizimidan iborat deyilgan (2-modda).

Mehnatni muhofaza qilinishini ta'minlash (2 bo'lim, 8-15 moddalar)da me'yoriy ta'minlash, muhofaza talablariga rioya qilish, mutaxassislarni tayyorlash, moliyaviy ta'minlash, iqtisodiy manfaatdorlik, xavfsiz sharoitlarni ta'minlash, muhofaza xizmatlari va ijtimoiy sug'urta haqida aytilgan.

Agar qonunning 3 bo'limida ishlovchilarning mehnatini muhofaza qilishga doir huquqlarini ro'yobga chiqarishdagi kafolatlar (16-21 moddalar) keltirilgan bo'lsa, 4 bo'limda davlat va jamoatchilik nazorati (22-24 moddalar) va so'nggi 5

bo'limda qonun va me'yoriy hujjatlarni buzganlik uchun javobgarligi ko'rsatib o'tilgan. Ushbu qonundan kelib chiqqan holda Mehnat Kodeksida to'liq XIII bob «Mehnatni muhofaza qilish» deb atalib, undagi talablar 211-223 moddalarida ko'rsatilgan.

Ushbu ikki mehnatni muhofaza qilish asosiy hujjatlar asosida, ishlab chiqilgan Nizomda (4 bo'lim, ilovalardan tashkil topgan) ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida aniq tadbir va choralar, qoida va ko'rsatmalar ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda ayollarning erkaklar bilan teng huquqligi ta'minlangan. Bu esa mehnat qilish haqidagi qonuniyatda ta'kidlangan. Shu bilan birga ayollar a'zolarining ba'zi xususiyatlarini va ayollarning oiladagi mavqeini hisobga olib, qonuniyatda ular uchun ma'lum yengilliklar va maxsus qoidalar belgilangan. Ayollar sog'ligiga zarar keltirishini hisobga olib, ba'zi bir ishlarda ayollar mehnatidan foydalanish ta'qiqlanadi. Masalan, ayollarning zaharli moddalar ajralishi bilan bog'langan kimyo sanoatining ba'zi tarmoqlarida, yer osti ishlarida va boshqa bir qancha ishlarda ishlashlariga yo'l qo'yilmaydi, ular qo'lda 20 kg gacha bo'lgan yukni va zambilg'altak bilan 50 kg dan oshmagan yukni olib yurishlari mumkin.

Farzand ko'rishi kerak bo'lgan va emizuvchi ayollarga maxsus yengilliklar tug'ildiriladi. Bunday ayollarni va 8 yoshgacha bolalari bo'lgan ayollarni tungi (soat 22 dan soat 6 gacha), ishdan tashqari, dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilish va komandirovkaga yuborish taqiqlanadi. Ma'muriyat ba'zi hollarda bunday ayollarni vrach xulosasiga asosan, o'rtacha ish haqini saqlagan holda yengil ishlarga o'tkazishi lozim. Ayollarga tug'ish oldidan va tuqqandan keyin 56 kalendar kundan haq to'lanadigan dam olish kunlari beriladi. Bundan tashqari, farzand kutayotgan va emizuvchi ayollar uchun yana bir qancha yengilliklar beriladi.

Sanoat korxonalarida ishlovchi ayollar uchun bola emizish xonalari, dush xonalari va shaxsiy gigiyena xonalari tashkil qilinadi.

O'smirlar uchun bir kalendar oy miqdorida yilning eng yaxshi davrlarida yoki o'zi hohlagan vaqtda dam olish kunlari berilishi kerak. O'smirlar mehnatidan tunggi ishlarda, ishdan keyin qolib ishlanadigan ishlarda, dam olish kunlarida foydalanish butunlay taqiqlanadi. O'smirlar sog'liklari uchun zararli moddalar ajralib chiqish bilan bog'liq bo'lgan ishlarda ishlatish mumkin emas. Mashinasozlik sanoatida o'smirlar mehnatidan galvanik sexlarda, har xil shamollatish tizimlarini remont qilish va tozalashda, shuningdek, simob va simob birikmalari bilan ishlanadigan ba'zi bir ishlarda foydalanish mumkin emas.

18 yoshga to'lmagan o'smir bolalarga 16 kg gacha, qizlarga esa 10 kg gacha bo'lgan og'irlikdagi yuklarni ko'tarish ruxsat etiladi. O'smirlar ishga qabul qilinayotgan vaqtda tibbiyot ko'rigidan o'tkaziladi, shuningdek 18 yoshga to'lguncha yiliga belgilangan rejaga muvofiq tibbiyot ko'rigidan o'tkazib turiladi. Agar tibbiyot ko'rigi o'smir bajarayotgan ish, uning sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani sezilsa, o'smir darhol xavfsiz va yengilroq ishga o'tkaziladi.

Ba'zi bir sohalarda zararli ish sharoiti bo'lgan joylar uchrab turadi. Mehnat qonuniyatiga asosan bunday joylarda ishlovchilar uchun ustama haq to'lanadi yoki ish soati qisqartiriladi. Ish soatining qisqartirilishi natijasida ishchi zararli moddalar bo'lgan zonada kamroq bo'ladi va bu bilan u kamroq zaharlanadi.

Zararli moddalar ajralishi mumkin joylarda ishlovchi ish kunlarida 0,5 litr miqdorda sut yoki shunga yarasha boshqa ehtiyot chora sifatida mahsulotlarni oladilar. Sut olish zarur bo'lgan kasblarni FZKU bilan kelishilgan holda korxonaning rahbar xodimlari belgilaydi. Bunga O'zbekiston sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlab chiqarilgan ilmiy xulosalar asos qilib olinishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi mazmunida ishlab chiqarish korxonalari ma'muriyati mehnatkashlarga ishlab chiqarish bilan bog'langan har qanday shikastlanish yoki zararlanishni, shuningdek moddiy yo'qotishni qoplash majburiyatini oladi.

Xavfsiz ishlash sharoitini yaratish borasida yo'l qo'yilgan har qanday kamchilik yoki xavfsiz ishlash sharoitini tashkil qilmaslik natijasida ishchining baxtsiz hodisaga uchrashi sanoat korxonasining yoki rahbar xodimlarning aybi

hisoblanadi. Moddiy yo‘qotishni qoplash miqdori va tartibi maxsus qoidalar asosida olib boriladi.

Yuqorida biz mehnat qonuni, kodeksi va ayrim me‘yoriy hujjatlardan qonun, qoida va ko‘rsatmalardan ayrimlarini ko‘rib chiqdik. Shulardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O‘zbekistonda fuqarolarning hayot faoliyati yetarli qonun va qoidalar bilan kafolatlangan.

Mehnat xavfsizligi tadbirlarini yaratish va ularning ijtimoiy iqtisodiy samaradorligi. Hayot faoliyati xavfsizligida mehnat muhofazasi, qonunda ko‘rsatilganidek:

- mehnat muhofazasi ish jarayonida insonning mehnat qobiliyatini, sog‘ligi va xavfsizligini ta‘minlash uchun yo‘naltirilgan qonunlar majmuasi, sotsial-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, gigiyenik, profilaktik tadbirlarni o‘z ichiga qamrab olar ekan, demak barcha jabhalarda fuqarolarning mehnat qilish sharoiti talab darajasida yaratilishi lozim.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanining metodologik asosining yana bir tomoni, bu mehnat sharoitini, texnologik jarayonni, ajralib chiqadigan zaharli moddalarni va foydalanish vaqtida paydo bo‘ladigan xavfli vaziyatlarni muntazam ravishda ilmiy tahlil qilib borishdir. Chunki, faqat tahlil asosida ishlab chiqarishdagi xavfli joylar, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavfli vaziyatlar aniqlanadi, ularning oldini olish va bartaraf etish choralari ishlab chiqiladi. Bu masalalarning barchasi o‘zaro bog‘langan, kelajak rejalarni hisobga olgan holda ko‘rilib borilishi lozim.

Ishlab chiqarishda, tashkilotlarda har bir rahbar va muxandisning O‘zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonuniga amal qilish, ishlab chiqarish xavfsizligi masalalarini ish faoliyatida to‘g‘ri hal etishi, uning shu sohadagi bilim va malakasiga bog‘liq. Hayot faoliyati xavfsizligi bilan bir qatorda uning tarkibiy qismi bo‘lgan mehnatni texnika xavfsizligi hamda yong‘inning oldini olish masalalari hozirgi vaqtda eng dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bu borada, yalpi safarbarlik bilan tashkilotlarda mehnat xavfsizligiga doir barcha qaror va hujjatlarni tahlil qilish, kelgusida mehnat xavfsizligi darajasini

ko'tarish, ish yuritishda texnika xavfsizligi mashg'ulotlarini o'tkazish, mehnat muhofazasi ishlarini tashkil etish, o'quv yurtlari o'qituvchilari, talabalari, xizmatchi va ishchilari o'rtasida shikastlanishning oldini olish hamda davlat standarti masalalari talablariga rioya etish maqsadida «Mehnatni muhofaz qilish to'g'risida» Qonunning qabul qilinganligi maqsadga muvofiq bo'lib, bu sohadagi barcha chora-tadbirlar aynan qonun asosida talab etiladi.

Agar biz «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunni mazmun jihatidan ko'rib chiqsak, unda uning o'z tarkibida jamoa shartnomasi, mehnat intizomi, ayollar va bolalar mehnati, ijtimoiy himoya hamda boshqa masalalarni mujassamlashtirilganligining guvohi bo'lamiz.

«Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonun asosida ishlab chiqarishdagi inson sog'ligi uchun zararli bo'lgan omillarni bartaraf qilish, baxtsiz hodisalarning oldini olish va ish joylarining sanitariya – gigiyenik jihatdan qoniqarli holatda bo'lishi uchun barcha zarur chora – tadbirlarni ko'rish mas'uliyati ma'muriyat zimmasiga yuklatilganligi ko'rsatib o'tilgan. Kasbiy zararliliklar mavjud bo'lgan hududlarda mehnat qiladigan ishchilar uchun qisqartirilgan ish kuni, qo'shimcha dam olish kunlari joriy etilishi, zararli ish joylarida ishlaganlarga, ya'ni juda issiq haroratli, sovuq, zax va sog'liq uchun zararli sharoitda mehnat qilayotganlar uchun maxsus ustama haq hamda himoya kiyimlari berilishi ko'zda tutiladi. Kasbiy kasalliklarning oldini olish, ishchilarning sog'ligini mustahkamlash maqsadida ularni o'rnatilgan tartibi joriy etilgan.

Korxonalarda ishchi va xizmatchilar ishining xavfsizlik darajasi, shuningdek, xizmat malakasi ishchining staji, lavozimidan qat'iy nazar ishga qabul qilinganda belgilangan muddatlarda texnika xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalar bilan tanishtirilishi shart. Yo'riqlantiruv ikki: kirish va ish joyidagi turlardan tashkil topadi.

Kirish yo'riqlantiruvi texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va tibbiyot xizmat xodimlari tomonidan o'tkaziladi. Unda yangi ishga kirayotgan ishchini mazkur korxonaning ichki tartib-qoidalari, shu jarayonning o'ziga xos zararli xususiyatlari, texnika xavfsizligi me'yorlarini bajarish majburiyati, shaxsiy himoya

vositalaridan foydalanish va baxtsiz hodisa ro'y berganda birinchi yordam ko'rsatish usullari bilan tanishtiriladi.

Ish joyidagi yo'riqlantiruv sex boshlig'i yoki navbatchi boshliq ishtirokida usta yoki sardor tomonidan o'tkaziladi. Bunda ishchi bajaradigan vazifasi, ish joyi texnika xavfsizligi yo'rig'i bilan tanishadi. Yo'riqlantiruvdan o'tgan ishchi 10 kun ichida tajribali ishchi nazoratida ish o'rganadi. Ishlash bilimi komissiya tomonidan qoniqarli deb baholangan ishchi mustaqil ishga qo'yiladi. O'tkazilgan barcha yo'riqlantiruv maxsus jurnal va ishchining shaxsiy varaqasiga yozib qo'yiladi.

Korxonadagi barcha ishchilar uchun olti oyda kamida bir marotaba ish joyidagi yo'riqlantiruv qaytarib turiladi. Texnologik jarayon o'zgarganda, korxonaga yangi mashina va agregatlar o'rnatilganda, sexda zaharlanish va baxtsiz hodisalar tufayli shikastlanuvchilar ko'paysa, unda rejadan tashqari yo'riqlantiruv o'tkaziladi.

O'ta xavfli ishlarda ishlaydigan ishchilar xavfsiz ishlash usullari bo'yicha maxsus o'qitiladi. Bularga bosim ostida ishlaydigan idish va apparatlar, gazda ishlaydigan mashina va apparatlar, kompressorlar, elektr uskunalarda ishlaydigan liftlar, elektr transporti haydovchilari, gaz hamda elektr payvandchilar va shunga o'xshash kasblarda ishlaydigan ishchilar kiradi. Bunday ishlarga ishchilarni qo'yishdan oldin ularning bilimi sinab ko'riladi va ularga «naryad ruxsat» beriladi. Unda ishni boshlash va tugatish vaqti, ishni boshlashdan oldin tayyorgarlik ko'rish tadbirlari yozib qo'yilgan bo'ladi.

Naryad ruxsatlar bosh muxandis, bosh mexanik, bosh energetiklar tomonidan beriladi. Ular xavfsizlik texnikasi bo'yicha attestatsiyadan o'tgan bo'lib, xavfli ishlar bo'yicha javobgar hisoblanadilar va korxona direktori tomonidan tayinlanadi.

Sanoat korxonalariga mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha o'qitish va targ'ibot qilish maqsadida texnika xavfsizligi xonalari tashkil etiladi. Unda texnika xavfsizligiga oid qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar, zamonaviy shaxsiy himoyalash vositalari bo'lishi zarur. Bunday xonalar umumiy yo'riqlantiruv o'tkazishda foydalaniladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida Mehnat Kodeksi va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi me'yorlarni buzishda ayblangan rahbar shaxslar ma'muriy moddiy va jinoiy javobgarlikka tortiladi. Ma'muriy javobgarlik – xodimga xayfsan berish, ishdan chetlashtirish, o'rtacha oylik ish haqining yigirma foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima solish va mehnat shartnomasini bekor qilishdan iborat. Moddiy javobgarlik esa «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunni buzgan shaxslarni nazorat tashkilotlari tomonidan belgilangan miqdorda jarima to'lashga yoki keltirilgan moddiy zararni qoplashga majbur qilishdan iborat. «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunni buzish baxtsizlik yoki o'limga sabab bo'lsa, aybdor shaxslar belgilangan tartibda jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Ishlab chiqarishda sog'lom va xavfsiz mehnat qilish sharoitini yaratishda, mehnat qonuni, kodeksi, Nizomidan boshqa Mehnat xavfsizligi standartlar tizimi katta rol o'ynaydi. Ulardagi qo'yilgan vazifani bajarishda va normadagi sharoitni ta'minlashda mehnat muhofazasini boshqarish tizimi – sistemasi (MMBT) inobatga olinadi. MMBT faoliyatiga mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni rejalashtirish, amalga oshirish, baholash, ishlarni barqarorlashtirishi kiradi. Shuningdek, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha tashviqot olib borish, xavfsizlik talabiga binoan o'qitish, ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, uskunalar, jarayonlar, bino va qurilmalar xavfsizligini ta'minlash, sanitariya –gigiyenik mehnat sharoitini yaxshilash, ishchilarni shaxsiy muhofaza vositalari va mehnatni normadagi rejimi, dam olish bilan ta'minlash, sanitariya-maishiy xizmat, mutaxassislarini kasbi bo'yicha tanlash kabi vazifalar tizimning tarkibi hisoblanadi.

Tizimni boshqarish uslubi asosini mehnat qonunchiligi hujjatlari, davlat va kasaba uyushmasi qarori, yo'llanma va farmonlari, texnikaviy norma – hujjatlar tashkil etadi. Sanoat korxonalarida mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi uchun 1980 yil 10 iyulda tasdiqlangan 480-sonli buyruq va tarmoq kasaba uyushmasi markaziy qo'mitasi bilan kelishilgan, 1984 yil 14 noyabrdan kuchga kirgan Nizom e'tiborga olinadi.

Ishlab chiqarish korxonalarida xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitini ta'minlashda xavfsizlik texnikasi, sanitariya-gigiyena va yong'in xavfsizligiga

bog'liq qoida, norma, yo'riqnomalar katta ahamiyatga ega. Ular umumiy, tarmoq va oraliq turlariga bo'linadi.

Umumiy norma qoidalariga «Qurilish norma va qoidalar» (SNI), «Sanoat korxonalarini loyihalash sanitar normalari» SN-245-71, «Nurlanish xavfsizligi qoidalar» (NRB-78), «Elektrotexnik moslamalar tuzilishi qoidalar» (PUE), «Portlashdan himoyalangan elektr uskunalarni tanlash qoidalar» (PIVRE), bosim ostida qo'llanadigan idishlarning tuzilishi va xavfsizligi qoidalar va boshqalar misol bo'ladi.

Vazirlik, ilmiy tekshirish, loyihalash institutlari o'zaro hamkorlikda tarmoq qoida va normalarini ishlab chiqib, tasdiqlab, ularni bir yoki bir necha tarmoq korxonalarida qo'llash uchun tavsiya etadilar. Oraliq qoida va normalari korxonalarda zaruriyatga qarab bajariladigan ish va jarayonlar uchun xavfsizlikni ta'minlash maqsadida tavsiya etiladi.

Mehnatni muhofaza qilish talablarini tashviqot qilish, amalga oshirish, rejalashtirish uchun hujjatlar tayyorlashda 1974 yil 1 iyuldan amalda bo'lgan mehnat xavfsizligi standartlar sistemasi (MXSS) dan foydalaniladi.

MXSS besh turga bo'lingan, masalan:

1) Tashkiliy – usulbiy standartlar – GOST 0.001-82, GOST 12.0.002-74, GOST 12.0003 -74, GOST 12.004-79.

2) Ishlab chiqarishdagi zararli, xavfli birliklarga talab va normalari standartlari – GOST 12.0.003-74

3) Ishlab chiqarish uskunalariga xavfsizlik talablari standartlari – GOST 12.2.003-74

4) Ishlab chiqarish jarayonlari xavfsizligi talablari standartlari – GOST 12.3.003 -74.

5) Ishchilarning himoya vositalariga bo'lgan talabalari 1973 yildan e'tiboran 300 dan ziyod standartlar tasdiqlanib, ishlab chiqarishga joriy etildi.

Hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishga yangidan-yangi texnologiya va mashina-uskunalarining joriy etilishi ishlab chiqarishda ishlayotgan har bir xodimdan yuqori malakani egallashni, texnika qonunlarini yaxshi

tushunishni va unga amal qilishni talab qilmoqda. Hozirgi vaqtda ishchilar xavfsizligini ta'minlash maqsadida ko'plab qoida, norma, instruksiyalar ishlab chiqilgan bo'lishiga qaramay, sanoat korxonalarida baxtsiz hodisalarning butunlay yo'qolib ketishini ta'minlaydigan va tartibga soladigan sharoit mavjud emas. Korxonalarning xilma-xilligini hisobga olib o'zi uchun mos keladigan mehnatni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan instruksiyalar tizimi GOST 12.0.004-79 (MXSS) tashkil qilingan.

Bu tizimlar ishchilarning xavfsizligini ta'minlovchi ish uskunalarini o'rgatish bilan ishchining mehnat xavfsizligini saqlash chora-tadbirlarini ham o'z ichiga oladi.

Mehnat xavfsizligi tadbirlarini yaratish va ularning ijtimoiy iqtisodiy samaradorligi muhim hisoblanadi.

Kasaba uyushmasi nizomiga asosan korxona kasaba uyushma qo'mitasi vositachiligida har yili ma'muriyat bilan ishchi – xizmatchilar o'rtasida o'zaro mehnat munosabatlari to'g'risida jamoa bitimi tuziladi. Bu bitimda ishchi va xizmatchilarning mehnat qilishi, madaniy va maishiy dam olish tadbirlari haqida kelishib olinadi.

Tuziladigan bitimda mehnatni muhofaza qilish chora – tadbirlari, mehnat sharoitini yaxshilash masalalari ham e'tiborga olinadi va bu masalalar ma'lum tartibga keltirilib, mehnatni muhofaza qilishning nomenklatura chora – tadbirlari sifatida bitimga qo'shib qo'yiladi.

III-BOB. O'zbekistonda milliy urf – odat va an'analar turizmni rivojlantirish yo'llari

3.1. O'zbek etnik madaniyati: o'ziga xos ko'rinishlari va belgilari

Ma'naviyat insonning, umuman kishilik jamiyatining mazmun-mohiyatini tashkil etuvchi uzviy belgisi, xossasidir». ⁸ Ushbu murakkab va shaxs hamda jamiyat hayotining barcha tomonlarini qamrab oluvchi universal tushunchani M. Imomnazarov soddalashtirish niyatida unga «ilohiy nur» deb ta'rif beradi. Ma'naviyatga «ijtimoiy ong, dunyoqarash, e'tiqod, din, diniy amaliyot, milliy g'oya, milliy mafkura ham, insonning xush fe'li, odobi, fazilatlari ham, ijodiy-izlanishlari va bu borada erishgan yutuqlari ham, jamiyatning asrlar osha kelayotgan osori atiqalari va madaniy merosi, urf-odatlari ham, zamondoshlarimizning kelajak haqidagi tasavvurlari-yu, ijodiy ma'nodagi orzu-havaslari va rejalari ham kiradi.

Ma'naviyatning eng muhim qismlaridan biri tarixiy-madaniy meros, ajdodlarimizdan bizga yetib kelgan osori atiqalar, an'analar, urf-odatlar, diniy marosimlar va bayramlar, xalq tomoshalari, xullas, etnik madaniyatdir.

Ma'naviyat bilan etnik madaniyat o'rtasidagi farq shundaki, ma'naviyat an'anaviy, milliy bo'lmagan qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi. Etnik madaniyat esa o'zbek xalqining milliy xususiyatlarini ifoda etadigan voqelikdir. Ma'naviyat sub'ektiv harakterdagi tushuncha, u ko'pincha axloqiy sifatlarni, munosabatlarni o'z ichiga oladi, etnik madaniyat esa millatimiz hayotidan muqim o'rin olgan, tarixiy-madaniy qadriyatlarga aylangan boyliklardan iborat. Ma'naviyatga zamonaviy munosabatlar ham kirgani uchun u tez transformatsiyaga uchraydi, etnik madaniyatga esa o'z o'zagini asrash, hatto konservativlik xos. U yangi, zamonaviy o'zgarishlarga, modernizatsiyaga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladi, davr va hayot sinovidan o'tgan qadriyatlarnigina innovatsiya sifatida qabul qiladi. Xullas, etnik madaniyat milliy ma'naviyatning o'zagidir.

⁸ Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. –T.: Ma'naviyat, 2002. – 24 b.

O'zbek xalqi ma'naviyatining etnik madaniyat bilan bog'liq, uyg'un jihatlarini an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar orqali qarash mumkin. Ushbu qadriyatlarning bir-biriga dialektik bog'liqligi o'zbek xalqining dunyoda kechayotgan o'zgarishlarga, jamiyatni modernizatsiyalashga faol munosabatda bo'layotganini, ularning ijtimoiy taraqqiyotni dinamik voqelik tarzida qarab, ushbu taraqqiyot inson ongi, ijodiy faoliyati, madaniyatiga bog'liqligini to'g'ri angelayotganini ifoda etadi.

Etnik madaniyat genezisi va mohiyati nuqtai nazaridan ijtimoiy munosabatlarning madaniy boyliklar timsolidagi in'ikosidir. Shuning uchun har qanday etnik madaniyat o'z funksiyalari doirasida chegaralanib qolmasligi, jamiyatda, kishilar ongi va hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan dialektik bog'liqlikda qaralishi lozim.

Madaniyatni insonning biologik jihatlar bilan bog'lab E.S. Markaryan shunday fikrga keladi: «Madaniyat biologik holatlardan tashqari sun'iy voqelik bo'lsa-da, u insonning biologik konstitutsiyasi (morfologik va b. xususiyatlari) bilan bog'liq va uni asrash funksiyasini bajaradi. Insonning ushbu biologik xususiyatlari va imkoniyatlari nafaqat madaniyatning namoyon bo'lish shakllarida o'z izini qoldirgan, shu bilan birga, uni ichdan belgilab bergan hamda uning rivojlanish strategiyasini belgilab bermoqda.» Bu o'rinda insonning nafaqat yeyish, ichish, kiyinish ehtiyojlari, shu bilan birga, har bir ijtimoiy guruhning o'z ehtiyojlari va intilishlariga muvofiq madaniyat yaratish xususiyatlari ham nazarda tutiladi. Demak, o'zbek etnik madaniyatini birinchidan, keng ijtimoiy munosabatlar, jamiyat hayoti, ikkinchidan, insonning ehtiyoj va intilishlari, turmush tarzi, psixologiyasi, oiladagi o'rni kabi omillar bilan bog'lab o'rganish zarur.

O'zbek xalqi etnik madaniyatining o'ziga xos ko'rinishlarini:

- I. O'rta Osiyo jug'rofiy muhitiga mos xo'jalik-madaniy tiplari;
- II. Oilaviy va maishiy hayot tarzi;
- III. Axloqiy-ma'naviy tarbiya usullari;

- IV. Og‘zaki ijodi;
- V. Ommaviy bayramlar va tomoshalarda ishtiroki;
- VI. Amaliy san’ati;
- VII. Pazandachilik san’ati;
- VIII. Dam olish va hordiq chiqarish usullari;
- IX. Ijtimoiy, siyosiy, huquqiy qadriyatlari;
- X. Tarixiy-madaniy tajribalarni asrashi;
- XI. Ilm-fanga va dindagi gumanistik g‘oyalarga e’tiqodi;
- XII. Zamonaviy ijod turlarida ishtiroki kabi ijtimoiy-madaniy faoliyatlari

orqali aniqlash, ochib berish mumkin.

Xo‘jalik-madaniy tiplari bilan oilaviy va maishiy hayot tarzi bir-biriga bog‘liqdir. Agar xo‘jalik-madaniy tiplari o‘troq yoki ko‘chmanchi hayot, dehqonchilik, chorvachilik yoki kosiblik, hunarmandchilik kabilar bilan belgilansa, oilaviy va maishiy hayot tarzi yaratilgan moddiy hamda ma’naviy boyliklardan foydalanish xususiyatlari, amal qilinadigan oilaviy an’analarda namoyon bo‘ladi.

Axloqiy-ma’naviy tarbiya odamning fe’lu huyi va harakatida yaxshi fazilatlarni shakllantirmoq demakdir.

Og‘zaki ijod turlarida har bir xalqning, ijtimoiy guruhning dunyoga, tuzumga, o‘zgarishlarga o‘ziga xos munosabatlari aks etadi. Allalar, maqollar, qo‘shiqlar, ertak va afsonalar, o‘zlari qahramoni bo‘lgan dostonlarda xalqimiz etnik madaniyatining muhim jihatlari badiiy-falsafiy tasvirlarda o‘z aksini topgan.

O‘zbek xalqi etnik madaniyatida amaliy san’at alohida o‘rin egallaydi. San’at, ayniqsa amaliy san’at xalqning olamni idrok etish va o‘zgartirishga bo‘lgan intilishlarini yorqin aks ettiruvchi ijodiy-madaniy faoliyat turidir.

O‘zbek ayollarining do‘ppichilik yoki kashtachilik kabi amaliy san’atini olaylik. Tarixiy-etnografik topilmalar ko‘rsatadiki, o‘lkamiz xalqlari eramizdan avvalgi asrlarda boshlariga do‘ppi yoki unga o‘xshash biror mato, jundan, teridan tikilgan qalpoqlar kiyib yurishgan. Vaqt o‘tishi bilan bosh kiyimlarda hududiy belgilar paydo bo‘la boshlagan. XIV-XV asrlarda har bir shaharda do‘ppichilar mahallasi bo‘lgan, ular shu hududning xos belgilari (yumaloq, to‘rtburchak,

uzunchoq shakllari) va naqshlar (ninagul, panjagul yaprog'i va b.)ga ega bo'lgan. XIX asrgacha ijtimoiy-iqtisodiy hayot asosan, mayda hunarmandchilik va xalq amaliy san'ati an'alariga qurilgan bo'lib, Marg'ilon, Xojikent, Qo'qon ipakchilik, Toshkent, Samarqand va Namangan teri-ko'nychilik, Qarshi va Termiz gilam, paloschilik, Chust, Shahrisabs pichoqchilik, Buxoro va Toshkent xalat, do'ppichilik, yog'och o'ymakorligi markazlari hisoblangan. Ushbu xalq san'ati turlariga chet ellarda ham talablar ko'p bo'lgan. XX asrga kelib, o'lkamizda tikish mashinalarining paydo bo'lishi xalq amaliy san'atida rang-barang usullar, maktablar, naqshiy belgilar va tasvirlarning o'zgarishiga sabab bo'ladi. Natijada, o'zbek ayollarining amaliy san'ati ayniqsa, do'ppichilik san'ati bugun nafaqat chet ellarda, hatto qozoq, qirg'iz ayollarinikidan ham keskin farq qiladi. Agar qozoq, qirg'iz do'ppilarining shakliiy tuzilishi yumaloq o'tovga o'xshasa, o'zbek do'ppilari to'rtburchakdir; agar, birinchisida sodda yaproq tasvirlari qo'llanilsa, ikkinchisida murakkab ninagul tasvirlari uchraydi.

Bundan tashqari o'zbek an'anaviy ijod turlarida o'ziga xos xususiyatlar ham mavjud. Masalan, buxorolik ayollar kashtachiligida sariq (tillo) va oq (kumush) iplarning yirik naqsh kompozitsiyalari ko'zga tashlansa, Xorazm kashtachiligida jun yoki oddiy iplarda mayda gullar aks ettiriladi. Samarqand va Farg'ona pazandachiligida dorivorlar, meva-chevalar, sabzavotlar rang-barangligi ko'zga tashlansa, xorazmliklar va qoraqalpoqliklarda asosan go'sht, yog'ni ko'proq ishlatish kuzatiladi. Xorazm va Qoraqalpog'istonda «ijjon» (maydalangan xom go'sht), Qashqadaryoda tandir kabob sevimli ovqat sanalsa, Farg'onada osh (choyxona oshi), Toshkent viloyatida qazili norin taomi an'anaga aylangan. O'zbek xalqida ushbu pazandachilik ko'rinishlari shunchaki qorin to'yg'azish ehtiyojigina emas, ular alohida san'at darajasiga ko'tarilgan va har bir hudud etnik madaniyatining tarkibiy qismiga aylangan faoliyat turlaridir.

O'zbek xalqida o'ziga xos rekreativ dam olish va hordiq chiqarish usullari bor. To'g'ri, dam olish va hordiq chiqarish millati, hududi, jinsi hamda kasb-koridan qat'iy nazar barcha insonga taalluqli voqelikdir. Biroq, ularni o'tkazish usullari nafaqat millatlar, xuddi shuningdek, ijtimoiy guruhlar, kasb-kor egalari,

hatto jinslarda har xildir. Masalan, O'rta Osiyo ayollarida g'azalxonlik kechalari o'tkazish an'ana bo'lgan. Unda asosan she'riyatdan, badiiy so'z san'atidan xabardor bo'lgan ayollargina qatnashgan. «Sust xotin» marosimi esa barcha ayollarga mo'ljallangan. Demak, kishilarning dam olish va hordiq chiqarishga qaratilgan an'analarida tor doira (maxsus tayyorgarligi bor kishilar) va keng doira, barcha qatnashishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ko'zga tashlanadi. Bunday xususiyat o'zbek xalqi etnik madaniyatining boshqa ko'rinishlarida ham uchraydi.

Etnik madaniyatning «tarixiy-etnografik va etnik tuzilishi qancha barqaror bo'lmasin mazkur etnoslar vaqt hukmi bilan doimo rivojlanib, o'zgarib turgan.»⁹ Etnos bilan birga, tabiiy ravishda, uning etnik madaniyati ham transformatsiyaga uchragan, modernizatsiyalashgan. Ijtimoiy-madaniy hayotimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlar o'zbek xalqini ijtimoiy, siyosiy va huquqiy sohalarda o'ziga xos an'analar, turmush tarzi, qarashlar, faollik turlarini yaratishga undamoqda. Masalan, bugungi ishbilarmonlik va tadbirkorlik harakatlarini olaylik. Bu o'rinda xalqimiz jahonning ijtimoiy faollik borasidagi ijobiy tajribalarini o'rganib, o'z imidji (ishbilarmonlik va tadbirkorlik madaniyati)ni yaratmoqda. Unga aqliy salohiyat, bilimdonlik, qiyinchiliklarni oldindan ko'ra bilish layoqati, ijodiy yondasha olish, tadbirkor muomala madaniyati, turli toifa, jins va yoshdagi kishilarga fikrini tushuntira bilish, kuchli iroda egasi, o'z «men»iga xos fazilatlarini namoyon etish, talabchanlik, qat'iyat, ruhiy tetiklik, salomatlik zarur. Ushbu tadbirkorlik madaniyati zamonaviy o'zbek xalqining hayotiy ko'nikmalariga aylanishi lozim. Bu o'rinda etnik madaniyat bilan zamonaviy madaniyat uyg'unlashib, xalqimizda yangi umuminsoniy, umumplanetar qadriyatlarning shakllanishiga olib keladi. Siyosiy, huquqiy sohalarda ham shunday transformatsion va modernizatsion o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Aholi qatlamlari ichida ko'proq ayollar tarixiy-madaniy tajribalar - an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar, to'y-yu tomoshalar va marosimlarga to'la amal qilish, ularni asrash uchun jon kuydiradi. Buni o'zbek ayoliga xos bo'lgan barqarorlikni asrash, oilani mustahkamlash, farzandlar sog'-salomatligi va baxt-

⁹ Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. –T.: O'qituvchi, 1994. – 13 b.

saodatini o'ylash, topganini oilasiga sarflash, murosada yashash uchun o'z qiziqishlari, hatto huquqidan voz kechish kabi psixologik xususiyatlar bilan izohlash mumkin. O'zbek ayollarida tarixiy-madaniy tajribalarga tayanish va ularni asrash etnomadaniy xususiyatdir. Hatto urushlar, inqiloblar, qayta qurishlar davrida ham ular ushbu etnomadaniy xususiyatlarini yo'qotmadi. Eng muhimi, ushbu belgilar ulardagi umuminsoniy-axloqiy fazilatlar, diniy qadriyatlar bilan uyg'unlashib keladi. Shuning uchun ularga xalqimiz tarixiy-madaniy qadriyatlariga mos hayo (ibolilik, iffatlilik, nomuslilik), axloq (poklik, andisha, bosiqlik, kamtarlik, samimiylik, soddalik, to'g'rilik, uyatchanlik, xushmuomalalik, yuvvoshlik), bardosh (sabr, qanoat, chidam), vafo (sadoqat, mehr-oqibat, vafodorlik), latofat (lobarlik, dilbarlik, nazokat, nafislik, xushsuratlik), bolajonlik (serfarzandlik), sha'n (g'urur, oriyat), mehnatsevarlik, fidoyilik, chaqqonlik, mehmondo'stlik, vatanparvarlik kabi hislatlar xosdir. Demak, axloqiy-ma'naviy hislatlar o'zbek ayollari etnik madaniyatining asosiy qismi, hatto negizi hisoblanadi. Aslida, axloqiy-ma'naviy belgilarsiz etnik madaniyat yo'q, biroq, ular har bir xalq va ijtimoiy qatlamlarda o'ziga xos ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Ilm-fanga, diniy qadriyatlarga qiziqish ham xalqimizga xos hislatlardir.

Etnik madaniyat mutlaq shakllangan, o'zgarmas voqelik emas, u jamiyat hayotida kechayotgan ijtimoiy jarayonlar ta'sirida, kishilarning ma'naviy, madaniy, ruhiy ehtiyojlari, qiziqish va talablari ta'sirida transformatsiyaga uchraydi, o'z manfaatlariga mos innovatsiyalarni qabul qiladi. O'zbek etnik madaniyatida esa u zamonaviy san'at turlari - estrada musiqasi, tasviriy san'at, xor san'ati, texnika ijodiyoti, turizm, fizkultura va sport, askiyabozlik, sirk san'ati kabilar bilan shug'ullanishda ko'rinadi. Ushbu innovatsiyalar o'zbek etnik madaniyatini dam olish va hordiq chiqarish, ijodiy-madaniy qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan yangi, noan'anaviy ijod turlari bilan boyitmoqda.

Mustaqillik o'zbek etnik madaniyatidagi an'anaviy qadriyatlarni qayta tiklash, ulardan unumli foydalanish, xalqimizning jahon madaniyati va sivilizatsiyasidan, ilg'or davlatlar erishgan yutuqlardan, umuminsoniy qadriyatlardan bevosita va to'la bahramand bo'lishiga imkon yaratdi.

O'zbek xalqining ma'naviy boyligiga aylanayotgan zamonaviy qadriyatlarga: a) siyosiy hayotda, demokratik institutlar faoliyatida mustaqil faol sub'ekt sifatida qatnashish; b) xalqaro tashkilotlar va nodavlat uyushmalari tuzish yoki ularning a'zosi bo'lish; v) mustaqil tarzda tadbirkorlik va ishbilarmonlik bilan shug'ullanish; g) zamonaviy san'at va ijod turlarini egallash va ular orqali o'zining ma'naviy-madaniy qobiliyatini rivojlantirish; d) xalqaro madaniy-informatsion jarayonlarda muallif sifatida ishtirok etish; ye) madaniy-ma'rifiy uyushmalarning tadbirlarida qatnashish; j) ilmiy-texnikaviy, badiiy ijod turlari bilan shug'ullanish va xalqaro tadbirlarda, ko'riklarda ishtirok etish kabilar kiradi.

Osiyo xalqlari etnik madaniyatida an'anaviy qadriyatlar bilan umumdunyoga xos urbanizatsiya belgilari innovatsiya sifatida uyg'unlashib kelishi kuzatilayotgan bo'lsa-da, ushbu uyg'unlashish har bir ijtimoiy guruh, sinf, shahar va qishloqda turlicha sodir bo'lmoqda.

Dunyodagi hech bir xalqning, millatning etnik madaniyati va an'anaviy qadriyatlaridan mutlaq voz kechib, innovatsiyaga, zamonaviy qadriyatlarga o'tishi kuzatilmaydi. Balki, aksincha, G'arb bugun Sharq an'anaviy madaniyatini o'rganish va ularni asrab qolishga intilmoqda. Demak, milliy taraqqiyot an'anaviy va zamonaviy madaniyatni, qadriyatlarni oqilona uyg'unlashtirishdadir.

3.2. Milliy urf–odatlar, an'analar turizmini rivojlantirishda turistik marshrut ishlab chiqishda xizmatlar ko'rsatish talabi.

Turizmdagi maxsus turlar uchun marshrutlarni turistik marshrutda xizmatlar ko'rsatish talabi bo'yicha ikki guruhga bo'lishimiz mumkin¹⁰:

1-guruh – Alohida turistik marshrutni talab qilmaydigan turizmning maxsus turlari;

2-guruh- Alohida turistik marshrutlar ishlab chiqishni talab qiladigan turizmning maxsus turlari. Turizdagi maxsus turlar geografiyasidan malumki,

¹⁰ R.Hayitboyev, A.Sattarov - «Turizm marshrutlarini ishlab chiqish texnologiyasi». Ma'ruzalar matni. Samarqand 2009

hozircha biz O‘zbekistonda turizmdagi maxsus turlarning 11 turini ro‘yxatga oldik. Bu turlar ham jami 51 tarmoqga, ko‘rinishlarga bo‘linib ketadi.

Birinchi guruhda turgan maxsus turlar alohida turistik marshrutlar ishlab chiqishni talab qilmasligining sababi – bu turlar resurslari – obektlari asosan shaharlarimiz, tumanlarimiz markazlarining ichida yoki atroflarida joylashganligidir.

Malum bir shaharga kelgan har qanday darajadagi turistni maxsus turlar obektiga taklif qilish turoperatorning tadbirkorligiga bog‘liq. Maxsus tur shahar ichida yoki atrofida (masofa yaqin) bo‘lganligidan turistik marshrutdagi asosiy xizmatlar: marshrutdagi to‘xtashlar vaqtida, dam olish, ko‘ngilochar o‘yinlar o‘tkazish, ekzotik safar, tunash kabilar talab qilinmaydi.

Turist maxsus tur obekti bilan tanishgach, tomosha yoki so‘rab surishtirishlar, rasm yoki videoga olgach o‘zi to‘xtagan mehmonxonaga qaytadi. Turistik marshrutda yuqorida qayd qilingan xizmatlarning barchasi turist yashayotgan mehmonxona ma‘muriyati tomonidan amalga oshiriladi.

Qayd qilingan mulohazalardan keyin 1-guruh quyidagicha to‘ldirilishi mumkin.

Birinchi guruh – Alohida turistik marshrutni talab qilmaydigan turizmning maxsus turlari:

- 1.1. Milliy madaniyatga qiziqish turizmi
- 1.2. Etnik va sog‘inish turizmi
- 1.3. Milliy sanat turizmi
- 1.4. Milliy hunarmandchilik turizmi
- 1.5. Milliy ustachilik turizmi.

Guruhdagi «Etnik va sog‘inish turizmi»ning alohida turistik marshrutlar talab qilmasligining sababi bu turni amalga oshiruvchi turistlar aksariyat hollarda «o‘zboshimchalik» usulini qo‘llaydi, yani u boradigan joyini biladi va turistik firma yoki turizm operatori xizmatiga harajat qilishni xoxlamaydi. Bu holatning yana bir sababi «sog‘ingan» yaqinlari, do‘stlari, o‘rtoqlari mehmonxona xizmatlarining barchasini unga bepul taklif etadi, (mehmon sifatida). Uchinchidan,

bu turdagi turistlar guruhlarini tashkil qilmaydi, aksincha yakka yoki oila tarkibida harakatlanadi.

Etnik, etnografik turizmde deyarli tadqiqotchilar-tarixchilar, adabiyotshunoslar, qiziquvchilar(bir yoki bir nechta turist) bo'lganligidan maxsus marshrut ishlab chiqish zarurati yo'q. Etnograf turistlar asosiy holatlarda tarjimon-yo'l boshlovchi va transport turini ijaraga olib bir manzildan yoki bir axoli maskanidan ikkinchi bir manzilga erkin harakat qilishadi. Ular ancha oddiyroq turistlar bo'lganligidan qishloqlarda, ovullarda yoki tumanlar markazlaridagi oddiy mahalliy mehmonxonalarda tunab, xizmatlarning deyarli barchasini o'ziga-o'zi xizmat usulida bajarib ketaveradi.

Ikkinchi guruhga kiritilgan maxsus turlarning «alohida turistik marshrutlar ishlab chiqishni talab qilishi» ning bosh sababi – bu turlarning shaharlar va tumanlar markazlaridan uzoqda joylashganligidir. Turistik resursga-obektga borgan turist uchun bunday joylardagi birinchi muammo dam olish va tunash joylari va bu joylarda ko'rsatiladigan xizmatlar bo'lib qoladi.

«Milliy o'yinlar turizmi» bilan kelgan turist albatta qishloqlardagi aholining milliy o'yini tomoshalariga qiziqqanligi uchun boradi. Masalan, ko'pkari-uloq o'yini, qo'chqor urishtirish tomoshalarini asosan Respublikamizning qishloqlarida yashovchi aholi o'zlarining sunnat to'ylarida, xalq bayramlari (Navro'z, hosil bayrami va hok.) da tashkil qilishadi. Ayniqsa, xalqaro turizmndagi turistlar oqimini jalb qilish imkoniyatlari juda salohiyatli bo'lgan «ko'pkari» asosan respublikamizda paxta yig'im-terimi tugagandan so'ng – noyabr oyidan boshlanib, mart oyi –«Navro'z» bayramigacha davom etadi.

Bu davr kuz-qish mavsumi bo'lib «ko'pkari» o'yinini tomosha qilish uchun maxsus transport turida qishloqlarga, tog' oldi rayonlariga, adir hududlariga borish kerak.

Ikkinchidan, dam olish, tunash sharoitlari, xizmatlar ko'rsatishni tashkil qilish lozim bo'ladi. Bu holatda turizmndagi turlardan majmuali foydalanish tamoyilini qo'llash maqsadli bo'ladi. Aniqrog'i tog' oldi, milliy o'yinlar o'tkaziladigan katta-katta, g'uj joylashgan qishloqlarda, xo'jaliklar markazida

«turistik lagerlar» majmuasini yaratish turizmni rivojlantirishda maqsadli yoʻnalishdir. Bu turistik lagerlarda joylashib olgan turist milliy oʻyinlarni oʻz vaqtida tomosha qilishi, boʻsh vaqtlarda lager atroflariga ekskursiyalarga borishi, mahalliy aholi hayoti bilan tanishishi, muloqotlarda boʻlishi imkoniyatlariga ega boʻladi.

Qishloq va fermerlar hayoti turizmida turist qishloq aholisi yoki fermer bilan birga yashashi, ishlashi mumkin. Chet davlatlarda bu turdan foydalanish shunday yoʻlga qoʻyilgan. Gʻorshunoslik va tabiiy-tarixiy tasvirlar turizmini shakllantirishda albatta turistik marshrutlar ishlab chiqiladi. Gʻorshunoslik turizmida koʻp hollarda turistning dam olishi, tunashi va ovqatlanishi uchun «palatkali» joylashtirish usulini qoʻllash lozim boʻladi.

Qayd qilingan mulohazalardan keyin 2- guruh quyidagicha toʻldirilishi mumkin:

Ikkinchi guruh - Alohida turistik marshrutlar ishlab chiqishni talab qiladigan turizmning maxsus turlari.

- 2.1. Qishloq va fermerlar hayoti turizmi
- 2.2. Tabiiy-tarixiy tasvirlar turizmi
- 2.3. Milliy oʻyinlar turizmi
- 2.4. Gʻorshunoslik turizmi
- 2.5. Agroturizm.

3.3. Oʻzbekistonda milliy urf–odatlar, anʼanalar turizmini rivojlantirishning dasturini ishlab chiqish

Turizmni ommaviy rivojlantirish uchun katta imkoniyat va salohiyatga ega boʻlgan turizmning maxsus turlarining istiqboldagi oʻrnini belgilash uchun albatta tashkiliy -harakat dasturini tuzish soha uchun zaruriy, majburiy talab ekanligini hozirdanoq anglamogʻimiz lozim.

Turizmning maxsus turlarini R.Hayitboyev. va R.Amriddinova rivojlantirish «Dasturi» ni ishlab chiqqan. (2 jadval).

**Turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirish
Dasturi**

Bosqichlar	Bosqichda bajariladigan ishlar	Muddat
I-bosqich	1.1 O'zbekistonda turizmdagi maxsus turlarning to'liq ro'yxatini tuzish, tavsif va tariflarini yaratish, bu turlarning geografik manzillarini aniqlash.	2009-2014 yillar
	1.2 Respublikamizda turizmning maxsus turlaridan foydalanishning huquqiy-qonuniy meyorlarini ishlab chiqish	2014-2015 yillar
II –bosqich	2.1 Turizmning maxsus turlari resurslariga- obektlariga – manzillariga qiymati jihatdan I-II- III darajali turistik marshrutlar ishlab chiqish va reklamalarini turizm bozoriga chiqarish.	2014 yillardan
	2.1 Turizmdagi maxsus turlardan foydalanishda turga taklif qilinadigan turistik xizmatlar paketini yaratish va tashkil qilish, bu sohada xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratish.	2014 yillardan
III–bosqich	3.1 O'zbekistonda turizmning maxsus turlaridan ichki turizmga foydalanishni ommaviy ravishda boshlash va targ'ibot ishlarini kuchli darajadagi reja bo'yicha olib borish	2014-2015 yillar
	3.2 Turizmdagi maxsus turlar resurslarida – obektlarida - manzillarida biznesni rivojlantirish orqali mahalliy aholi mehnat resurslari uchun qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish va turistik infratuzilmalarni hosil qilish.	2015-2016 yillar
IV–bosqich	4.1 O'zbekistonda turizmdagi maxsus turlardan xalqaro miqyosda foydalanishni boshlash. 4.2 Turizmdagi maxsus turlarning jahon talablariga mos keladigan moddiy- texnik, axborot-malumotlar bazasini yaratish, jahon andozalariga mos keladigan xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirib	2015 yildan keyingi yillar

	borish	
--	--------	--

Qayd qilmoqchimizki, «Turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirish dasturi» bizning maxsus turlarni rivojlantirishning juda muhimligini bu turlar turizmda salohiyatli, ichki va xalqaro turizmni o'ziga doimo jalb qiladigan muhim sohalardan bo'lishiga ishonchdir.

Albatta, bu dastur dastlabki tahlil mahsuli bo'lib, dasturni mukammal tuzishga turizmdagi mutaxassislar, professor - o'qituvchilar, turistik firmalar va turistik tashkilotlar, «O'zbekturizm»MK ishtirokida ko'rib chiqish, muhokama qilish va keng qamrovli «Dastur»ga aylantirishni, muhim hujjat sifatida davlat maqomida rasmiylashtirishni talab qiladi.

Xulosa.

Bitiruv malakaviy ishni shakllantirishda kuzatuv tadqiqotlari, to'plangan internet ma'lumotlarning tahlili natijalari bo'yicha quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

O'zbekiston mustaqillikga erishgandan so'ng, milliy hunarmandchilik rivojlandi, milliy urf – odatlarimiz tiklandi. Mamlakatimizda hunarmandlar markazi tashkil etilishi, bu sohadagi tadbirkorlarga davlat tamonidan qo'llab qo'vatlanib erkinliklar berilishi bu sohani yanada rivojlanishiga asos bo'ladi. Turizm sohasida ham ko'p rivojlanishlar bo'ldi, etnik turizm yaxshi rivojlonayotgan turizm sohasi bo'lib shakillandi. Turizmning bu turi ommabop turlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Oddiy xalq bilan tanishash ularning an'analarini ko'rish, milliy taomlarini tanavul qilish, hunarmandchiliklari bilan tanishish, fikrlar eshitish va h.k.

Turizmdagi maxsus turlarning ob'ektlari - xalqimizning tarixiy davrlardan buyon shakllanib, sayqallanib kelayotganligi, bu madaniyat va san'at, loydan gul yasaydigan, milliy to'n, atlas, do'ppi tikadigan qo'li gul hunarmandchiligi, temirdan san'at asari yaratadigan ustachiligi, jahondagi davlatlarda yashayotgan xalqlarda uchramaydigan, jasurlik-mardlikni kuylovchi milliy o'yinlari, e'zozli mehmondorchiligi, saxovatli to'yu- tomoshalari borligiga asoslanganligi uchun ham, xalqimizning milliy g'ururini jahonga ko'z-ko'z qilishimiz va bundan faxrlanishimiz uchun ham xalqaro turizmda maxsus turlarni rivojlantirishimiz shart.

Tavsiyalar.

Bitiruv malakaviy ishining natijalari va xulosalaridan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Mavzuning dolzarbligi, maqsadi, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati oldimizga qo‘ygan vazifalarning bajarilganligini ishning natijalari va xulosalaridan kelib chiqib turizm sohasidagi amaliyotda qo‘llash uchun quyidagi tavsiyalarni taklif qilamiz:

- ✓ Turoperatorlar tomonidan tuziladigan turpaketlarga urf – odatlarimiz dasturini kiritish kerak;
- ✓ Milliy urf – odatlarimiz turlarining respublikamizdagi hamma resurslarini ro‘yxatga olish, tavsiflash va turizm sohasidagi o‘rnini, ahamiyatini belgilash;
- ✓ Jahon andozalari, talablariga javob beradigan reklama tizimini ishlab chiqish, targ‘ibot qilishni ta’minlash;
- ✓ Milliy urf – odatlarimiz turlarni rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyatlariga keng yo‘l, ochib berish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992 il 8 dekabr)
2. VI- Toshkent Xalqaro Investitsion-Moliya Forumi doirasida o‘tkazilgan Plenum majlisida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot ishlari vaziri G.Saidova nutqida. 2013y.
3. R.Hayitboyev., R.Amriddinova «Turizmning maxsus turlari». Uslubiy qo‘llanma.Samarqand 2008
4. Tuxliyev I.S. Hayitboyev R., Ibadullayev N, R.Amriddinova. Turizm asoslari. Samarqand, 2010.
5. Nishonova O J “Etnik madaniyat va marosimlar” Ma’ruzalar to‘plami Toshkent 2009
6. Erkayev A. Milliy g‘oya va ma’naviyat.T.: Ma’naviyat, 2002. 24 b.
7. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. T.: O‘qituvchi, 1994. 13 b.
8. R.Hayitboyev, A.Sattarov «Turizm marshrutlarini ishlab chiqish texnologiyasi». Ma’ruzalar matni. Samarqand 2009

Internet saytlari

1. <https://www.google.com>
2. <http://xs.uz>
3. [www .airways.uz](http://www.airways.uz)
4. www.uzrailway.uz